Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

## DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**




## SENTYABR

## №44

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz
www.conferences.uz

CONFERENCES.UZ

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

# НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ КОНФЕРЕНЦИЙ: ЧАСТЬ-10

# NATIONAL RESEARCHES OF UZBEKISTAN: CONFERENCES SERIES: PART-10

ТОШКЕНТ-2022

**УУК 001 (062)**
**КБК 72я43**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:”** мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 74 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар**
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**
Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**8.Адабиёт**
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**
Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**
Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

***Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.***

**© Муаллифлар жамоаси**
**© Tadqiqot.uz**

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

**1. Курьязова Санабар Ибрагимовна**
МНЕМОТЕХНИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ В РАБОТЕ УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИИ .................... 8
**2. Ашурова Дилрабо Халиловна**
ЎҚИТИШНИНГ КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИДА ЎҚИТУВЧИ ВА ТАЛАБАЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК .................... 10
**3. Hasanova Nigora Sheramatovna**
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH YO‘LLARI .................... 12
**4. Otajonova Gulshoda, Bekchonova Umida**
KITOBXONLIK - MA’NAVIYAT SARCHASHMASIDIR .................... 14
**5. Shixmetova Umida Rajabboyevna**
BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O’YINLARNING AHAMIYATI .................... 16
**6. Муқимов Маъруф Олимович**
АХБОРОТЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА МУРАББИЙ - ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ИЖТИМОИЙ ЖИҲАТДАН ЗАРУРИЙЛИГИ .................... 18
**7. Gaipova Saodat Suyarkulovna**
TA’LIM JARAYONINING MOHIYATI TUZILISHI VA UNING VAZIFALARI .................... 20
**8. Xoshimova Shoxida Ibragimovna**
BOSHLANG’ICH SINFLARNI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH .................... 22
**9. Allanazarova Mamura Akhmedovna**
DIFFICULTIES AND POSSIBILITIES OF FOREIGN LANGUAGE DISTANCE LEARNING .................... 24
**10. Атаева Рануша Рашидовна**
ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ .................... 26
**11. Муқимов Маъруф Олимович**
АХБОРОТЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЪМИНОТЛАРИ ВА УЛАРДАН АМАЛИЁТДА ФОЙДАЛАНИШ .................... 29
**12. Эгамбердиева Гузал Мадияровна**
КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ .................... 31
**13. Abdullaeva Kunduzhon Rustamboy qizi, Ro’zmetova Ozoda Rustamovna**
XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHNING AHAMIYATI .................... 33
**14. Abdullayeva Ilmira Razzakberganovna**
BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .................... 34
**15. Aslamova Umida Kaxorovna**
TEXNOLIGIYA FANIDAN TO‘GARAKLARNI TASHKIL QILISH .................... 35
**16. Avezova Muazzam Odambayevna, Ismailova Moxira Baltabayevna**
BIOLOGIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARNI KASBGA YO’NALTIRISH USULLARI .................... 36
**17. Babadjanova Gulsara Jumanyozovna**
BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI CHIROYLI YOZISHGA O‘RGATISH BO’YICHA AYRIM MULOHAZALAR .................... 38
**18. Bardiyeva Rayxon Xakimboy qizi**
BIOLOGIYA DARSLARIDA NOAN’ANAVIY TA’LIM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI .................... 40

**19. Kodirova Mohira Rashidovna**
THE ORIGINS OF GLOBALIZATION OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE MODERN WORLD ........ 41
**20. Kudaybergenova Barno Bayrambayevna**
TABIIY FANLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM YONDASHUV ........ 43
**21. Norbekova Mushtariybonu**
MUSIQA FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH ........ 45
**22. Matsopoyeva Dinora Qudratovna, Matchanova Farida Erkinbayevna**
GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL TA’LIM VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI ........ 47
**23. Madaminova Raxima Maksudovna**
MAKTABLARDA GEOGRAFIYA DARSLARINI O‘QITISH BO‘YICHA TAVSIYALAR ........ 49
**24. Radjapova Raziyajon Marimovna, Xaydarova Nargiza Shonazarov**
BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARDA ZAMONAVIY METODLARINI QO’LLASHNING AHAMIYATI ........ 51
**25. Reyimova Barno Sadullayevna, Adamova Zamira Rustamovna, Jo‘raboyeva Dilfuza Umrbek qizi**
TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI ........ 52
**26. Sabirova Dilnavoz Safayevna, Masharipova Galina Remirovna**
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA KO‘RGAZMALILIKNING AHAMIYATI ........ 54
**27. Tajibayeva Karomat Erkinovna, Matyaqubova Ro’za Raximboyevna**
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASHDAGI AFZALLIKLARI ........ 56
**28. Turdioxunova Muhayyo Furqatovna**
O’ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARDA ILGARI SURILGAN YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRUVCHI G’OYALAR ........ 57
**29. Xoliqova Nilufar Qudratovna**
TABIIY FANLARNI O’QITISHDA O’QITUVCHI FAOLIYATINING SAMARASI ........ 60
**30. Xolmatova Ro’zixon Olimjonovna**
HAR BIR INSON HURMATGA LOYIQ ........ 62
**31. Xujaniyazova Nargiza Satimovna**
MUAMMOLI TA’LIMNING O’ZIGA XOS JIHATLARI ........ 64
**32. Yakubova Munira Bobonazarovna**
TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUV LOYIHALARIDAN FOYDALANISH ........ 66
**33. Гаппарова Севара Камилжановна**
ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ СЛОВОУПОТРЕБЛЕНИЯ ........ 68
**34. Қурбонов Ғуломжон Ғафурович**
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА УМУМКАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МОБИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ ........ 70
**35. Zulpanov Akbar Maxmudovich, Pardaboyeva Gulnoz Baxtiyor qizi**
TASVIRIY SAN’ATNING JISMONIY TARBIYA BILAN UYG’UNLIGI ........ 72

# ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

## МНЕМОТЕХНИЧЕСКИЕ ПРИЕМЫ В РАБОТЕ УЧИТЕЛЯ ТЕХНОЛОГИИ

**Курьязова Санабар Ибрагимовна**
Учитель технологии шк.28 г.Ургенч
Телефон:+998914202152
profianonim@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Мнемотехника- это набор приемов, методов для более легкого запоминания информации. Простыми словами — это специальные приемы, позволяющие запоминать трудное и сложное.

Помогает развивать: ассоциативное мышление, зрительную и слуховую память, внимание, воображение. Использование опорных рисунков для обучения заучиванию стихотворений, увлекает детей, превращает занятие в игру. Зрительный же образ, сохранившийся у учащихся после прослушивания, сопровождающегося просмотром рисунков, позволяет значительно быстро запомнить текст.

**Ключевые слова:** Мнемоника, приемы, методы, обучение, память, ассоциации, мышление, искусство запоминать.

Память – это фундамент нашего сознания, позволяющий запоминать то, что видим, слышим или делаем. В результате всё, что сохранилось в прошлом, воспроизводится в будущем. С мнемотехникой я познакомилась на тренинге "Genius X" в Ташкенте. Эта техника меня очень заинтересовала. Начала изучать эту технику в интернете и набрала хороших поучительных идей. Применила на уроках, на конференции города, на занятиях в опорной школе. Действительно мнемотехника - техника развития мышления. Главное - техника помогает легко усваивать изученный материал.

Искусство запоминания развивалось средневековыми монахами, которым нужно было помнить огромное количество богослужебных текстов. В эпоху Возрождения знания стали считаться силой, способность держать знания в голове ценилась очень и очень высоко. Они пользовались специальным приемом запоминания информации — мнемотехникой. За многие века она претерпела колоссальные изменения, но суть ее осталась прежней. Техника, которая позволяет быстро и эффективно запоминать огромные объемы информации существует уже более 2500 лет.

Но в то же время парадокс налицо: почему, когда есть эффективные технологии, ребенок тратит 3 недели для того, чтобы запомнить страны Европы, когда это делается за 30 минут? Почему на запоминание правил дорожного движения люди тратят несколько недель, вместо одного вечера? Зачем ребенку ходить днями напролет зубрить стихотворение, когда это можно сделать за несколько элементарных действий и получить хорошую оценку. Зачем зубрить таблицу умножения, когда ее можно понять и выучить за два вечера? Почему нужно учить определения и формулы, когда их легко можно запомнить приемами мнемотехники? Техники эффективного обучения, в первую очередь мнемотехнику, просто необходимо интегрировать в нашу систему образования.

Мнемотехника — набор приемов, методов для более легкого запоминания информации. Простыми словами — это специальные приемы, позволяющие запоминать трудное и сложное.

Мнемотехника – это система методов и приемов, обеспечивающих эффективное запоминание, сохранение и воспроизведение информации, и конечно развитие речи. Мнемоника, или мнемотехника, - система различных приёмов, облегчающих запоминание и увеличивающих объём памяти путём образования дополнительных ассоциаций,

организация учебного процесса в виде игры. Использование мнемотехники в настоящее время становиться актуальным. Основной «секрет» мнемотехники очень прост и хорошо известен. Когда человек в своём воображении соединяет несколько зрительных образов, мозг фиксирует эту взаимосвязь. И в дальнейшем при припоминании по одному из образов этой ассоциации мозг воспроизводит все ранее соединённые образы.

**Данная технология имеет:**

1.Теоретическую основу – базируется на представлении о сложной и активной природе процессов запоминания, опирающихся у человека на целый ряд совместно работающих аппаратов мозговой коры, она открывает широкие возможности для более эффективного заучивания детьми текста, даже, что особенно важно, детьми с проблемами в развитии

2.Формирует воображение, понимание того, что слышишь; способность сохранять в памяти поступившую информацию;

3. Развивает образное мышление, творческие способности детей, зрительную память.

**Отличительные особенности технологии:**

-имеет чёткое теоретическое и экспериментальное обоснование;

-приемы запоминания индивидуализированы;

-широко используются образные коды, обеспечивающие быстрое запоминание;

-введено понятие ”навык запоминания” и разработана точная система контроля навыка запоминания.

**Мнемотехника помогает развивать:**

ассоциативное мышление,зрительную и слуховую память,зрительное и слуховое внимание, воображение.

***Заключение.***

Используя в своей работе наглядное моделирование, мы учим детей: добывать информацию, проводить исследование, делать сравнения, составлять четкий внутренний план умственных действий, речевого высказывания; формулировать и высказывать суждения, делать умозаключения; применение наглядного моделирования оказало положительное влияние на развитие неречевых процессов: внимания, памяти, мышления**.**

**Список литературы:**

1. Френсис Йетс "Искусство памяти". 1997

2. Матюгин И. Ю. "Методы развития памяти, образного мышления, воображения".1996.

3. Козаренко В. "Мнемотехника. Запоминание на основе визуального мышления". 2000.

4. Материалы Интернет-сайтов: Технология развития памяти и ее применение в педагогической практике. Мнемотехника как средство развития памяти учащихся.

# ЎҚИТИШНИНГ КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИДА ЎҚИТУВЧИ ВА ТАЛАБАЛАР ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК

**Ашурова Дилрабо Халиловна**
Ажиниёз номидаги Нукус
давлат педагогика институти
Таянч докторант
ashurovadilrabo@mail.ru

**Аннотация:** Таълим ва тарбия жараёнида ўқувчида таълимга оид чуқур билим, кўникма ва малакалар шаклланади ва бунинг асносида юқори компетенцияга эга салоҳиятли кадрлар етишиб чиқади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, талабаларнинг ўқув жараёнига бўлган муносабати профессор-ўқитувчилар ва талабалар ўртасида тўғри ташкил этилган педагогик муносабатлар жараёнига, ўқув материалларини танлаш ва ташкил этиш, билимларни ўзлаштириш жараёнини такомиллаштириш жиҳатларига боғлиқ.

**Таянч сўзлар**: кредит, ўқиш юкламаси, таълим дастури каталоги, талабанинг шахсий таълим траекторияси , транскрипт, педагогик муносабатлар, педагогик маҳорат

Таълим-инсоннинг давлат томонидан белгиланган таълим даражалари (таълим стандартлари, малакалари)га эришишга қаратилган шахсни тайёрлаш ва тарбиялаш жараёнидир [4].

Ҳозирги пайтда мамлакатнинг турли соҳаларида, жумладан олий таълим тизимида ҳам, юрт келажаги учун мустаҳкам пойдевор қуриш ва тараққий этган мамлакатлар даражасига эришиш учун кўплабислоҳотлар ва ижобий ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси[1]да 2020 йилга “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили" деб ном берилишини таклиф этиб, мактаб битирувчиларининг олий таълим қамров даражаси ошириб борилиши, таълим тизимини рақамлаштириш, мутахассисликка алоқаси бўлмаган фанлар сонини икки баробарга қисқартириш ҳамда олий таълим муассасалари ўқув жараёнини кредит-модуль тизими асосида ташкил этиш ва кўпгина олий ўқув юртларига молиявий мустақиллик бериш масалалари илгари сурилди.

Ўзбекистонда таълим тизими етти тилда олиб борилади. Улар: ўзбек, рус, тожик, қозоқ, қарақалпоқ, кирғиз ва туркман тиллари. Деярли 90 фоиз мактабларда ўқиш ўзбек тилида олиб борилади. Мамлакатимизда 5,5 фоиз мактабларда ўқиш – рус тилида, 2,5 % – қорақалпоқ тилида, 2 фоиз – тожик тилида, 0,4 % – қирғиз тилида, 0,2 фоиз – туркман тилида олиб борилади. Республикамизда таълим тизими шундай йўлга қўйилганки, ўқувчилар ўз она тилларини чуқур ўрганиш билан бир қаторда баъзи хорижий тилларни мукаммал ўрганиш имкониятига ҳам эгалар. Ва шу сабабли ҳам, бугунги кунда республикамизда ўз она тилидан ташқари рус, тожик, қозоқ тиллари ва бир неча хорижий тилларни биладиганлар сони тобора ортиб бормоқда.

Вазирлар маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги 824-сон қарори[2] да ўқитишнинг кредит-модуль тизимида қўлланиладиган асосий тушунчалар, ўқув жараёнини режалаштириш, уни мониторинг қилиш, таълим самарадорлигини такомиллаштириш ва кредит-модуль тизимидаги баҳолаш ва баҳолар конвертациясини амалга ошириш масалалари хусусида баён этилган:

- **Кредит-**ўқитишнинг кредит-модуль тизимининг ўлчов бирлиги;
- **K** — маълум бир фан ёки модуль учун белгиланган кредитлар ҳажми;
- **U** — маълум бир фан ёки модулдан талаба жамлаган баҳо;
- **ўқиш юкламаси-**талабаларнинг ОТМ фаолияти ҳисобланган- амалий машғулот, маъруза, семинар, лаборатория иши, амалиёт, курс ишини амалга ошириш асосида ўқув натижаларига эришиш учун белгилаб қўйилган соатлар миқдори;
- **таълим дастури каталоги**-олий ўқув юрти тавсифи, таълим йўналиш ва мутахассисликлари, хизматлар ва ресурслар, таълим дастурлари элементлари тавсифи ҳақидаги маълумот
- **талабанинг шахсий таълим траекторияси** — талабаларнинг ўзлари танлайдиган ва ўзлаштирадиган билим ва кўникмалар жамланмасига эга бўлиш имконини берувчи йўналиш
- **транскрипт** — ўқишнинг маълум бир пайтида ўзлаштириладиган баҳо ва кредитларнинг рақамлар ва ҳарфлар ифодаси кўрсатилган ҳужжат

Кредит-модуль тизими нафақат талабалардан, балки педагоглардан ҳам улкан масъулиятни

талаб қилади. Таълимнинг кредит технологиясини қўллаш бўйича ўқитувчининг касбий компетенциясини шакллантириш тизими мураккаб узоқ муддатли жараёндир. Ўқитувчи шахси ва касбий фазилатларини шакллантиришга субъектив омиллар билан бир қаторда психологик-педагогик, ижтимоий-сиёсий фанларни мақсадли ўрганиш, синфдан ташқари машғулотлар ўтказиш ва ўқув амалиётини ташкил этиш каби айрим объектив омиллар ҳам катта таъсир кўрсатади. Ўқитувчиларнинг таълимнинг кредит технологиясидан фойдаланишини шакллантиришнинг муҳим омиллари ўқитувчи ва талабалар ўртасидаги мулоқотнинг тизимлилиги, давомийлиги, интенсивлиги ва кўп қирралилигидир.

А.И.Авазбоев ва Я.У.Исмадияровлар[3]га кўра **педагогик маҳорат**- бу касбий фаолиятни юқори даражада бажариш имконини берувчи шахсий фазилатлар йиғиндисидир. Ушбу шахсий сифатлар қуйидагилар:

1. Ўқитувчи шахсининг йўналиши-педагогик маҳоратнинг шаклланишида ўқитувчи шахсининг йўналиши яъни ўқувчиларга, таълим жараёни, унинг мазмун ва моҳиятига бўлган муносабат, таълим-тарбиянинг жамиятдаги ўрнини англаш ва таълим- тарбия жараёнидаги мавжуд имкониятлардан унумли фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.
2. Ўқитувчининг касбий билимлари -ҳар бир педагогдан ўз касбий фаолияти мобайнида ўз устида ишлаб, билимларини кенгайтириб бориш талаб қилинади. Улар замон талабига жавоб бера оладиган, ғоявий-сиёсий, педагогик-психологик, назарий, услубий ва технологик билимлар эгаси бўлишлари даркор.
3. Ўқитувчининг педагогик қобилияти-ўқитувчининг педагогик қобилияти унинг касбий фаолияти мобайнида шаклланиб, мукаммаллашиб боради.

Педагогик ҳамкорлик фаолиятида олий таълимнинг кредит-модуль тизимида профессор-ўқитувчи ва талабалар орасида тенг ҳуқуқли муносабатлар мавжуд бўлса, ҳар қандай вазифа мамнуният билан бажарилади ва бунинг натижасида кадрлар тайёрлаш самарадорлиги таъминланади. Шу билан бирга шуни ҳам ёдда тутиш керакки, ўқув-тарбия жараёнида ўқувчилар фаоллигини шакллантириш нафақат фан асосларини ўзлаштириш механизми, балки шахснинг умумий ижтимоий-маданий қобилиятларини шакллантиришга қаратилган.

Бугунги кунда юртимиз олий ўқув юртларида қўлланилаётган таълимнинг кредит тизими талабаларга кўпгина имкониятларни, жумладан, ўқув жараёни давомида тўпланган кредитларни йўқотмасдан таҳсил олаётган олий таълим муассасаси ёки танланган мутахассисликни ўзгартириш имкониятини бермоқда. Бу эса талабалар ҳаракатчанлигини (мобиллигини) оширишда қўл келмоқда. Агар таълим тизимини янги босқичга ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилинган бўлса, янги тизимга ўтишда тўсқинлик қилувчи шаклланган стереотиплардан воз кечиш керак бўлади.

Таълимнинг кредит тизими олий таълим муассасалари битирувчиларининг академик ҳаракатчанлигини таъминлаб, меҳнат бозорининг ўзгарувчан эҳтиёжларини қамраб олган ҳолда, замонавий жиҳатларга эга бўлган кадрлар тайёрлаш учун кенг имкониятлар яратмоқда. Кредит тизимининг аҳамияти шундаки, ўқув дастурлари меҳнат бозори талабларига мувофиқ тузилган. Ўқув режасидаги фанларнинг 50 фоизи танлов фанлари бўлиб, таълим жараёнига ахборот тизимлари жорий этилган. Бу, шунингдек, талабаларни мустақил таълимга йўналтириш учун ўқитиш ва уларни меҳнат бозорига тайёрлашга индивидуал ёндашувдир.

Жаҳон таълим стандартларига тўла жавоб бера оладиган ўқитишнинг кредит тизими эса юқорида таъкидлаб ўтилган жиҳатларга эга мутахассисларни тайёрлашда кенг имкониятлар яратади.

Бизнинг фикримизча, Республикамиз олий таълим тизимига кредит таълим тизимини татбиқ этишда менталитетимиз билан боғлиқ хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда талабаларнинг маънавий-маърифий ривожланишига етарлича эътибор қаратиш лозим.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси
2. Вазирлар маҳкамасининг 2020 йил 31 декабрдаги 824-сон қарори
3. А.И.Авазбоев ва Я.У.Исмадияров, Касбий педагогика, Ўқув қўлланма, Тошкент-2014, 184-185 бетлар
4. Джуринский А.Н. Развитие образования в современном мире: учеб. пособие для вузов по пед. спец. / А.Н. Джуринский. – М.: Владивосток. 2004. – (Учебное пособие для вузов). – 239 с.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISH YO‘LLARI

**Hasanova Nigora Sheramatovna**
Navoiy viloyati Navbahor tumani
MTBga qarashli 9-son DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning turlari hamda ularning o`ziga xos jihatlari to`g`risida amaliy va nazariy ma`lumotlar berib o`tilgan.

**Kalit so’zlar:** tabiat, o`yin, mehnat, ekskursiya

Maktabgacha ta`lim tizimi uzluksiz ta`limning birlamchi, eng asosiy bo`g`inidir. Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko`ra, inson umri davomida qabul qiladigan barcha axborot va ma`lumotning 70 foizini besh yoshgacha bo`lgan davrda oladi. Shu bois bolalarning sog`lom, bilimli bo`lib voyaga yetishishida maktabgacha ta`lim-tarbiya alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatdagi narsa hodisalarni o`rganishga bo`lgan qiziqish yuqori bo`ladi. Ular atrofida bo`layotgan o`zgarishlarga befarq bo`lishmaydi. Hamma savollarga javob topishni istashadi shuning uchun ham ko`p savollar bera boshlaydi. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalar ilk marotaba atrofi olam haqidagi tasavvurlarga ega bo`ladi. Ular uchun tabiat hodisalari, fasllardagi o`zgarishlar, jonli va jonsiz tabiat, o`simliklar, hayvonlar qiziq tuyiladi. Ko`p vaqtini tabiat qo`ynida o`tkazishni xohlashadi. Katta yoshdagilar esa bolalarning bu qiziqishlaridan unumli foydalanib ularga tabiatni tanishtirish bilan bir qatorda, unga mehr uyg`otib borishi kerak bo`ladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning xilma-xil yo‘llari mavjud bo`lib, ular quyidagilarni o`z ichiga oladi: ta`lim-tarbiya jarayonida, o`yinlar o`ynash jarayonida, kundalik hayot ishlarida, ekskursiya jarayonida hamda mehnat jarayonlarida o`z aksini topadi.

**Mashg`ulotlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning o`ziga xosligi.**

Bolalar tabiat haqidagi o`zining qiziqtirgan savollariga mashg`ulotlar jarayonida javob topishadi. Yillik ish rejasiga muvofiq turli mashg`ulotlar jarayonida tabiat haqida keng tushunchalar bolalarga berib boriladi. O`simliklar, hayvonlar hashorotlar, ularning rivojlanishi, oziqlanishi, yashash sharoiti haqidagi boshlang`ich tushunchalarni berishda mashg`ulotlar jarayonidan beriladi. Tabiat haqidagi turli rasmlar, ko`rgazmalar, qo`l mehnatlari hamda qiziqarli videoroliklar bolalarni atrof-olamga yanada yaqinlashtiradi va bilimlarini mustahkamlaydi.

**O`yinlar jarayonida bolalarda tabiatga mehr uyg`otish.**

O`yin maktabgacha ta`lim tashkilotida yetakchi faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. U bolalarni nafaqat bo`sh vaqtlarini mazmunli o`tkazadi, balki, bolalarga bilim ham beradi. Turli syujetli-rolli o`yinlarni o`ynash orqali bolalarni tabiatga bo`lgan qiziqishini yanada oshirish mumkin. Misol tariqasida “bog`bon bog`bon” o`yini, “ovozidan top” o`yini, “nima qayerda o`sadi” o`yinlari orqali bolalar tabiatga yanada yaqin bo`ladi, unga oid so`zlarni ko`p ishlatadi, tabiat haqidagi tasavvurlari kengaya boshlaydi.

**Ekskursiya jarayonida tabiat bilan tanishish.**

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta’lim berishning tashkiliy formalaridan biri ekskursiyadir. Ekskursiya jarayonida bolalar ona tabiat to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar. Bu tasavvur tabiatni ko‘rish, eshitish, sezish orqali idrok etiladi. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshidagi bolalarda tabiat, undagi bog‘liqlik va uning qonuniyatlari to‘g‘risida realistik tasavvurlar hosil bo‘ladi. Bu tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etadi. Tabiat to‘g‘risidagi bilimlardan bexabar bo‘lish ko‘pincha o‘simlik va hayvonlarga nisbatan noto‘g‘ri, ba’zi hollarda esa berahm va shafqatsiz munosabatda bo‘lishga olib keladi. Ekskursiya bolalarni tabiatni o‘ziga xos hodisa va voqealari bilan tanishtiribgina qolmay, balki shu bilan qatorda insonlarni tevarak-atrofdagi o‘zgartiruvchi faoliyatining natijalari bilan ham tanishtirib boriladi. Bu esa kishilarning yaratuvchanlik faoliyatiga hurmatini tarbiyalaydi va unda qatnashish xohishini uyg‘otadi, o‘z o‘lka tabiatidan, unda yashovchi mehnat ahlidan g‘ururlanish hissini mustahkamlaydi.

**Mehnat jarayonida bolalarni tabiat bilan tanishtirish.**

Mehnat jarayonlari bolalar uchun maroqli va zavqlidir. Chunku ular bu jarayonda o`zlarini kattalardek tuta boshlaydi, qo`lidan kelgan ishlarni tengdoshlariga ham ko`rsatishni xohlashadi.

Mehnat jarayonlarida bolalar tabiat haqidagi nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko`rishadi. Masalan, qushlar mavzusidagi mashg`ulotlarda ular qushlarning qayerda yashashini, nimalar bilan oziqlanishini bilib olishsa, mehnat jarayonlarida esa olgan bilimlarini amalda sinashadi. Ular tabiat burchagida qushlarga don va suv berishini o`rganadilar, ular qanday oziqlanayotganini ko`rib zavqlanadi, gullarni parvarishlaydi. Yer maydonchasidagi mehnat jarayonlarida esa ular o`simliklar, hashorotlar bilan yanada yaqinroq tanishish imkonini beradi. Ular o`z mehnatini qadrlashni hamda tabiatni asrashni o`rganishadi.

Bolalarning tabiatga mehri yoshligidan rivojlanadi shunday qilib ularning atrof muhit haqida bilimlari imkon boricha erta boshlash kerak. Ular o`z atrofidagi hatti harakatlarni kuzatishadi va ularga taqlid qilishadi. Yuqoridagi tilga olingan barcha metodlar va usullar bolalarda tabiatga nisbatan qiziqish uyg‘otadi, ularni yanada sinchkovlik bilan kuzatishga, kuzatayotgan narsa ustida chuqurroq o‘ylashga, fikr, bilim doirasini kengaytirishga, har xil tabiiy voqea, hodisalarni so‘z bilan chiroyli qilib to‘g‘ri ifodalab berishga o‘rgatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. SHaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. I. Alqarov, R. Mamatqulova, X.Norqulov Toshkent.2009

2. N.Ravshanova. “Maktabgacha talim muassalarida ekologik talim-tarbiya” bo’yicha tuzilgan namunaviy dastur va o’quv qo’llanma. T-2006

# KITOBXONLIK - MA’NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

**Otajonova Gulshoda,**
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
4-maktab ona tili va adabiyot o’qituvchisi
**Bekchonova Umida,**
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
18-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada Inson ma’naviyatining sarchashmasi bo’lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantiirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

***Kalit so’zlar:*** Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi ta’bir joiz bo‘lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma’naviyatimizda g‘oyat ulkan voqea bo‘ldi. Ushbu sa’y-harakat milliy adabiyotimiz va ma’naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo‘lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o‘rinda xorij tajribasini o‘rganish, yoshlar o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi masalalarning ko‘tarilgani g‘oyatda tahsinga loyiqdir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o‘qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Go‘zallik – ilmu ma’rifatda”. Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasbhunarli va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lish, va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo’lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliyhuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘st bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini

ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o’z oilasi a’zolari ko’magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o’qishga munosabati katta ta’sir ko’rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o’qishda ham bolalariga o’rnak bo’lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o’qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so’rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o’rganish (aniqrog’i o’rganish) muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish

2. https://www.standart.uz/news/view?id=1627

# BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O’YINLARNING AHAMIYATI

**Shixmetova Umida Rajabboyevna,**
Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani
24-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

***Annotatsiya:*** Ushbu maqolada boshlang’ich ta’lim samaradorligini oshirishda didaktik o’yinlarning ahamiyati haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

***Kalit so’zlar:*** boshlang’ich, o’yin, ahamiyati, didktik, faoliyat, aqliy, bolalar

Boshlang`ich sinflarda o`tiladigan ona tili, matematika, o`qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra ta’lim tizimida alohida o`rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang`ich ta’lim darslariga o`quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e’tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang`ich sinflardanoq dars degan muqaddas so`zdan bezib qolmasliklari kerak. Boshlang’ich sinf darslarini samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an’anaviy va noan’anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to’g’ri tashkillashtirish va o’quvchilarni kreativ fikrlash sifatlarni shakllantirishdir. O’quvchilarning darslarga bo’lgan qiziqishlarini orttirish, dars samaradorligini ta’minlashda darslarda foydalaniladigan qiziqarli mashqlar, didaktik o’yinlar ahamiyati kattadir. Didaktik o’yinlar o’quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o’quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro’yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik o’yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o’yinlardan iborat. Bular o’quvchilarda aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma’naviy, ma’rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko’nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o’yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o’quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o’ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Didaktik o’yinlar, butun sinf ishtirok etganda bolalar o’rtasida o’zaro hamkor bo’lib ishlash, o’z-o’zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig’ish, saranjomsarishta bo’lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo’ladi. Bunday didaktik o’yinlar, o’quvchining o’qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o’qituvchi bolaga do’stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Didaktik o’yinlar o’zining shakli jihatidan asosan bog’chada o’ynaladigan ijodiy o’yinlardan ham, o’qituvchi o’zi hikoya qilib berish yo’li bilan tushuntiradigan va o’quvchilarni birma-bir so’rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o’yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o’yinlar o’qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g’olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar. Didaktik o’yinlar ta’limning ko’rgazmaliligini, o’qituvchining nutqini va bolalar harakatini o’z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko’rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug’iladi. Bu esa o’qituvchining aytganlarini bolalarning o’ylab olishiga va o’sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o’yinlar qoidalarini o’quvchilarning o’zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o’yinlarning boy tarzda tuzilish xususiyatlari o’quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o’yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o’yinlar bolaning his-tuyg’usiga ta’sir etib, unda o’qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o’yinni zo’r mamnuniyat bilan ijro etadi.

O’yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o’quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi. Har bir didaktik o’yinda ko’pchilik bolalar yoki butun bir sinf o’quvchilari ishtirok qiladi. Tajriba shuni ko’rsatadiki, didaktik o’yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o’yin g’alaba qozonishga intilish bilan bog’liq bo’lib, o’yin shartlari va qoidalariga qat’iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo’sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Kim turgan saf yaxshiroq», «Doiraviy misollar», «Zanjircha», «Narvoncha», «Qaysi surat bekitildi?», «Jadvalni qidirib top», «Nimani taqillatdim?», «Jim», «Bilmasvoyning xatolari»,«Bu qaysi shakl?», «Zukkolar», «Zinadan tushing», «Topishmoqlar», «Zigzag», «Moychechak», “Fikrni davom ettir», «Bo’g’inlar», «Teatr», «Sonli jadvallar», «Qiziqarli kvadratlar», «Bolalar bog’chasida» «Mehmondorchilikda»,

«Kim epchil?», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin», «Ko’rganni eslab qolish diktanti» singari o’yinlarni o’tkazish paytida o’quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo’lishiga o’quvchilarning o’zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o’tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Har qanday interfaol usul o`quvchilarni to’g’ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o’rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o’qituvchi asosiy javobgar shaxs bo’lgan ta’lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o’quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma’lumot berishdir. Har bir o`qitish tizmining shakllari, uslublari davr talablariga mos ravishda o`zgarishi shart.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.
2.G‘ulomov A., Ne’matov X. Ona tili ta’limi mazmuni. –T. 1995 y

# АХБОРОТЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА МУРАББИЙ - ЎҚИТУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ИЖТИМОИЙ ЖИҲАТДАН ЗАРУРИЙЛИГИ

**Муқимов Маъруф Олимович,**
Жиззах давлат педагогика университети, доцент в.б
Телефон:+998945752442
maruf_Olimovich@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Мазкур мақолада миллий спорт турлари бўйича мураббий - ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашда ахборотли таълим муҳитидан фойдаланишнинг ижтимоий жиҳатдан зарурийлиги ҳамда унинг мақсад ва вазифалари тўғрисида фикр юритилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** миллий спорт турлари, мураббий-ўқитувчилар, ахборотли таълим муҳити, профессионал таълим, ахборот технологиялари.

Таълим соҳасида амалга оширилаётган ислоҳатлар натижасида юзага келган замонавий профессионал таълим муассасалари, айниқса миллий спорт турлари бўйича мураббий-ўқитувчилар тайёрлайдиган олимпия ва паролимпия заҳиралари коллежлари юртимиз ёшларини ва спортини дунёга танитишда замонавий малакали кадрларга ижтимоий эҳтиёжнинг қондирилишини таминлайдиган таълим муассасаси ҳисобланади. Бундай ижтимоий эҳтиёжларни қондириш эса илм-фан ва техника-технологияларнинг энг сўнги ютуқларидан бўлажак мутахассисларни тайёрлашда фойдаланиш заруриятини келтириб чиқармоқда, чунки эски услуб ва технологиялар билан тайёрланаётган мутахассислар замонавий талабларга жавоб бера олмай қолмоқдалар, яъни рақобатбардош бўла олмайди.

Мазкур мақолада миллий спорт турлари бўйича мураббий - ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашда ахборотли таълим муҳитидан фойдаланишнинг ижтимоий жиҳатдан зарурийлиги ҳамда унинг мақсад ва вазифалари тўғрисида фикр юритилади.

Демак, жаҳон ахборот ҳамжамиятига кириш ҳамда жаҳон ахборот ресурсларидан баҳраманд бўлишни кенгайтириш учун қулай шарт-шароитлар ва имкониятлар яратишни узлуксиз таълим тизимида замонавий компъютер ва ахборот технологияларни эгаллашга асосланган илғор таълим тизимларини тадбиқ этишга эътибор қаратилиши лозим экан. Бунга замонавий таълим тизимимизда имкониятлар бор, чунки ҳозирда ахборот технологиялари ва воситаларини ўрганиш ҳамда улардан амалда фойдаланишга оид билим, кўникма ва малакалар узлуксиз таълим тизимининг барча таркибий қисмларида таълим олувчиларга тақдим этилмоқда.

Ахборот технологияларининг асосий вазифалари сирасига қуйидагилар ҳам киради: манба (тадқиқот объекти) ва ундан кечадиган жараён тўғрисидаги сонли ёки сифатий маълумотларни қайта ишлаш; жараёнлар кечиши ҳақидаги даврий маълумотларни мунтазам олиб туриш ва улар асосида оралиқ назоратлар олиб бориш; ихтиёрий жорий сўровларга ўша пайтнинг ўзида жавоб олиш, расмийлаштириш ва бошқаришга керакли тузатишлар кирита олиш. Шунингдек, унинг таълим-тарбиядаги асосий вазифаларидан бири ҳар бир таълим олувчининг билимини кенгайтириш ҳамда таълим жараёнида ахборотларни излаш ва улардан самарали фойдаланиш мақсадида ахборотларнинг келиб тушишини таъминлашдан иборатдир. Бу асосий вазифани эса ахборотли таълим муҳитисиз ҳал қилиб бўлмайди, чунки у шахснинг ижодий ташаббускорлик қобилияти ва интеллектуал салоҳиятини ривожлантириш негизида таълим олувчиларга билимларни мустақил эгаллаш ва мустаҳкамлаш ҳамда улардан белгиланган мақсад - вазифаларга қараб самарали фойдаланиш ва ўқитиш натижаларини таҳлил қилишга қулай шарт-шароитлар яратади.

Ахборотли таълим муҳити деганда таълим олувчи, таълим берувчи ва замонавий ахборот технологиялари воситалари уйғунлигидаги таълимда ахборотлар алмашинуви асосидаги ҳатти-ҳаракатлар жараёнининг пайдо бўлиши, ривожланишига имкон берувчи шарт-шароитлар мажмуаси тушинилади ва бундай муҳитда муайян ўқув курси бўйича предмет мазмунининг муҳим компонентлари (компъютерга уланадиган турли хил ўқув, намойиш қилувчи жиҳозлар, дастурий воситалар ва тизимлар, ўқув кўргазмали ва бошқалар) жамланган шароитда таълим олувчининг (таълим берувчининг ҳам) фаол билиш фаолиятини шакллантириш жараёнига асосий эътибор қаратилади.

Юқоридаги ахборотли таълим муҳитга берилган таърифдан унинг **мақсадини** қуйидагича ифодаласак бўлади: замонавий ахборот технологиялари ёрдамида таълим олувчи ва таълим берувчи ўртасидаги тўғри ва тескари алоқалар жараёни пайдо бўлиши ва ривожига имкон берувчи шарт – шароитлар мажмуаси пайдо бўлганда таълим олувчининг ўқув – билув фаолиятини шакллантириш ва такомиллаштириб бориш.

Унинг вазифаларини эса қуйдагича ифодалаймиз: **биринчидан,** таълим олувчининг ижодий ташаббускорликка бўлган интеллектуал салоҳияти имкониятларини аниқлаш ва уларни фаол таълимини ташкил этишда ҳисобга олиш; **иккинчидан,** ахборотли таълим муҳитида таълим олувчиларнинг касбий билимларини эгаллаш, айниқса мустақил эгаллашига ва улар асосида касбий кўникма ҳамда малакаларни сифатли эгаллашига шарт – шароитлар яратиш; **учинчидан,** ахборотли таълим муҳити асосидаги таълим мазмунини аниқлаш; **тўртинчидан,** миллий қадриятлардан фойдаланган ҳолдаги таълим жараёнидаги инновацион ёндашувларни рўёбга чиқариш бўйича фаннинг (мавзунинг) мазмунига киритиш учун қўшимча равишда мос материаллар (матнлар, лавҳалар, расмлар, видеоклиплар, ва бошқа дидактик материаллар ва воситалар) ва уларни ўзлаштиришни назорат қилиш учун тест саволлари тайёрлаш; **бешинчидан,** ахборотли таълим муҳитидаги таълим жараёнининг натижаларини (кутилаётган – режалаштирилган натижаларни) рўйхатга олиш, таҳлил қилиш ва ушбу жараёнларнинг автоматлаштирилган кўринишларини таълим олувчиларнинг ўзлаштириш натижалари мониторингини мунтазам олиб боришга тайёрлаш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ҳозирги кунда миллий спорт турлари бўйича мураббий - ўқитувчиларни ахборотли таълим муҳитида касбий фаолиятга тайёрлаш, шу асосда самарали инновацион услубларни ва технологияларни ўзлаштириш ва уларни амалиётга жорий этиш рақобатбардош замонавий кадрларни тайёрлашга мустаҳкам **дидактик асос** бўлади.

**Адабиётлар**

1. Тўрақулов О.Х. Ахборот таълим муҳити моделини яратиш тамойиллари // “Касб-ҳунар таълими”. ИМЖ. – Т.: 2008. - № 3. – Б. 10-11.

2. Абрасимов А.Г. Информационно – образовательная среда учебного процессов ВУЗ. – М.: “Образование и информатика”, 2004. – 256 с.

3. Бекмуратов Т.Ф., Дадабоева Р.А. Таълим муассасининг интеграллашган ахборот тизими // “Педагогик таълим”. – Т.: 2000. - № 3. – Б. 8-12.

# TA’LIM JARAYONINING MOHIYATI TUZILISHI VA UNING VAZIFALARI

**Gaipova Saodat Suyarkulovna**
Sirdaryo viloyati Bayovut tumani
39- maktabning bashlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annatotsiya:** Ta’lim jarayonining mohiyatining o’ziga xos shakllari va usullarini o`rganish haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Talim metodlari, Hikoya qilish, Suhbat metodi, Mashq qildirish metodi, Darslik va kitob bilan ishlash.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan – kunga kuchayib boromoqda, bunday bo’lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anvaiy ta’limda o’quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishlariga, musatqil o’rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida o’quvchi – talaba asosiy figuraga aylanadi.

Interfaol usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Bugungi davr talabi ta'lim sifatini ko`tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta’lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo‘nalishlarini belgilab berdi:

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish.

**Talim jarayonida metodlarning pedagogik mohiyati**

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo’llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog’liqdir. Talim nazariyasida o’qitish (talim) metodlari markaziy o’rin egallaydi.

«Metod» yunoncha metodos so’z bo’lib, «yo’l», tadiq qilish kabi manolarni anglatadi. Talim metodi talim jarayonida o’qituvchi va o’quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlaridir.

Talim metodlari o’qitishning o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o’quv materialini nazariy va amaliy yo’naltirish yo’llarini anglatadi. O’qtish metodlari talim jarayonida o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining qanday bo’lishi, o’qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o’quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi.Talim metodi o’qituvchi bilan o’quvchilarning o’qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo’lidir.

**Hikoya qilish** o’qituvchi tomonidan yangi o’tilayotgan mavzuga oid narsa, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo’lib, obrazli tasvirlash yo’li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir (bayon qilish 1-4-sinflarda 10-12-daqiqa, 5-7-sinflarda 15-20-daqiqa, 8-9-sinflarda 30-40 daqiqa bo’lishi mumkin). Hikoya qilish ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitishda keng qo’llaniladi.

Hikoya qilish davomida o’quvchilar passiv tinglovchi bo’lib, qolmasliklariga, aksincha, ular faollikni oshirish, diqqatni mavzuga safarbar qilish, hodisa va voqealar ustida fikr yuritish, fikr almashish maqsadida savollar berib borish, ko’rgazmali qurollardan foydalanishga etibor berish lozim.

**Suhbat metodi** ko’pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki bu metoda dars o’tilsa, u asosan savol-javob yo’sinida olib boriladi.

O’qitish jarayonida o’rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo’llaniladi, shuningdek, o’quvchilar tomonidan yangi o’tilgan mavzu qanchalik tushunganlarini

tekshirish maqsadida ham suhbat o’tkaziladi. Suhbat metodi bilan ish ko’rganda, mashg’ulotlarni tashkil qilish va uni olib borishda o’qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. O’qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o’kuvchilarining hammasiga taalluqli bo’lib, so’roq o’rtaga tashlanishi kerak.
2. O’quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.
3. Sinfning barcha o’quvchilari javob berayotgan o’kuvchini qunt Bilan tinglashi, uning javobini to’ldirishi, tuzatish, oydinlashtirishga yordam berishini taminlash lozim.

**Darslik va kitob bilan ishlash** materialni og’zaki bayon qilish metodining asosiy turi bo’lib, maktab amaliyotida muhim o’rin tutadi. O’quv adabiyotlari bilan ishlash murakkab psixologik jarayonni o’z ichiga oladi. U talim jarayonida o’qituvchi tomonidan bayon qilingan bilimlarni, o’quv materiallarni kitob matnidan ko’rib, ongli idrok qilish faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Darslik va kitob bilan ishlash ikki yo’nalishda olib boriladi.

**Mashq qildirish metodi**, asosan o’zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo’llay olish, tegishli ko’nikma va malakalarga ega bo’lishni taminlashga xizmat qiladi. Odatda, mashq qildirish deganda ilmiy bilim va malum bir ish – harakatni o’zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali ravishda tashkil etilgan takrorlash tushuniladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xoliqov A ‖Pedagogik mahorat‖ – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil, 350 b.
2. Abdullayeva B.S va b Boshlang’ich sinf o’quvcnilariga geometrik

# BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Xoshimova Shoxida Ibragimovna**
Sirdaryo viloyati Bayovut tumani
39-umumta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari, hozirgi zamon innovatsiyalaridan foydlanish, yangi ta'lim texnikalari, o`qitish samaradorligini oshirish bo'yicha fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, metodika, texnika, o'quvchi.

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang`ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda - bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi.

Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi. Darslarda quydagi metodlardan foydalansa bo'ladi:

**"Maqol" metodi:** O'quvchilarni rag'batlantirish va maqollarni bilish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi o'yin shartini aytmagan holda talabgor o'quvchilarni doskaga taklif etadi. O'quvchilar istaganicha doskaga chiqishi mumkin. O'qituvchi birinchi o'quvchiga bejirim karopka beradi, o'quvchi maqol aytib uni sherigiga uzatadi. Karopkani olgan o'quvchi maqol aytib yana keyingi sherigiga tutqazadi. Maqol aytolmagan yoki aytilgan maqolni takrorlagan o'quvchi o'rniga o'tiradi. O'yin bitta o'quvchi qolgunicha davom ettiriladi. Oxirgi qolgan o'quvchi g'olib bo'lish uchun maqol aytadi va karopkani ochib ichidagi o'qituvchi tayyorlagan sovg'aga ega chiqadi.

**"Mo'jizalar maydonchasi"** O'quvchilarning o'rniga qarab uch guruhga ajratib olinadi. Har bir guruhga alohida o'tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Har bir guruhdan savolga birinchi bo'lib javob bergan uch o'quvchini doskaga taklif qilinadi. O'qituvchi doskaga o'tilgan mavzuga aloqador atamaning harflariga teng katakchalar chizadi. Birinchi chiqqan o'quvchi o'zi istagan katakchaning harfini ochadi. Agar birinchi ochilgan katakchadayoq qaysidir o'quvchida javob tayyor bo'lsa javobni aytishi, yoki keyingi o'quvchi boshqa bir katakchani ochib davom ettirishi mumkin. Harflarni ochishda o'quvchilarga savol berilmaydi, o'quvchi navbat bilan o'zi istagan katakchani ochishni so'raydi. Atama topilgunga qadar o'yin davom ettiriladi.

**"Kim chaqqon" o'yini:** Bu o'yin qatorlaro o'tkaziladi. Qatorlardagi o'quvchilar soni tengiligi hisobga olinadi. O'qituvchi o'yin shartini tushuntiriladi.

O'yinning maqsadi: o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, tez fikrlash, yozish ko'nikmasini rivojlantirish va chaqqonlikka o'rgatish.

**O'yinning borishi:** O'qituvchi 3 varaq oq qog'ozni olib, oxirgi qatorda o'tirgan o'quvchilarga beradi va topshiriqni tushuntiradi.

**Masalan:**

I qator: "a" unlisi bilan boshlanadigan va tugallanadigan so'zlarni navbat bilan yozib, varaqni oldinga uzatadi.

II qator: "k" undoshi bilan boshlanadigan v ava tugallanadigan so'zlarni navbat bilan yozib, varaqni oldinga uzatadi.

III qator: "o" unlisi bilan boshanib, "a" unlisi bilan tugagan so'zlarni yozadi.

Oldingi o'quvchi o'z navbatida so'zni yozib, varaqni o'qituvchiga topshiradi.

O’qituvchi yozilganlarni tekshirib, xatolarni aniqlaydi. To’g’ri, tez va chiroyli ishni bajargan qatorni rag’batlantiradi.

**Masalan:**

I qator: aylana, Aziza, arafa

II qator: koptok, kapalak, kamalak

III qator: ona, ana, Oysha, oyna

**“Kim tez topadi” o’yini:** Bu o’yinda qisqa vaqt ichida tez va to’g’ri javob berilishiga qarab g’oliblar aniqlanadi. Guruhlar bilan o’tkaziladigan bu o’yin uchun tezkor savollar tuziladi, javoblar bir so’zdan iborat bo’lishi mumkin. Tanlanadigan savollar o’quvchilarning dunyo qarashi, bilim va saviyasi, iqtidori va hozirjavobligini hisobga olgan holda tuzilsa, o’quvchilar faolligi yanada oshadi.

**Masalan:**

1.O’zbek xalq ertagidagi eng mitti polvon?

(No’xatpolvon)

2. Qog’oz nimadan tayyorlanadi?

(Daraxtdan)

Bunday o’yinni boshqa mavzularni mustahkamalsh maqsadida ham istagan sinfda, hatto topshiriqni biroz murakkablashgan holda o’tkazish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: «Sharq» nashriyot-matbaa kontserni, 1997.

2. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo’Chqorova,

3.https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-sinflarda-innovatsion-metodlarning-ahamiyati.

# DIFFICULTIES AND POSSIBILITIES OF FOREIGN LANGUAGE DISTANCE LEARNING

**Allanazarova Mamura Akhmedovna,**
Specialized Branch of Tashkent State University of Law,
General Educational Disciplines Department

**Annotation.** The combination of distance learning and emerging computer technologies has brought many benefits to the field of education. In practice, however, the combination frequently falls short of the goals it sets out to achieve. Some of the flaws are due to technological issues, while others are related to administration, teaching methods, or students. Despite the issues, many users appreciate technologies like compressed video and anticipate continued growth in the field. This paper will look at some of the most recent research and ideas about the benefits, drawbacks, and future possibilities of modern distance learning, particularly that which is delivered through electronic means.

***Keywords:*** *Correspondence courses, compressed video, drawbacks, tremendous promise, enrollment, physical building space.*

# CHET TILINI MASOFAVIY O'RGANISHNING QIYINCHILIKLARI VA IMKONIYATLARI

**Allanazarova Mamura Akhmedovna,**
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Ixtisoslashtirilgan Filiali,
Umumta’lim fanlari kafedrasi

**Annotatsiya.** Masofaviy ta'lim va rivojlanayotgan kompyuter texnologiyalarining uyg'unligi ta'lim sohasiga ko'p foyda keltirdi. Amalda esa, bu uyg’unlik tez-tez erishmoqchi bo'lgan maqsadlarga to'g'ri kelmaydi. Kamchiliklarning ba'zilari texnologik muammolar bilan bog'liq bo'lsa, boshqalari boshqaruv, o'qitish usullari yoki talabalar bilan bog'liq. Bunday muammolarga qaramay, ko'pchilik foydalanuvchilar shu kabi texnologiyalarni qadrlashadi va bu sohadagi yangiliklarni davom etishini doim kutishadi. Ushbu maqola zamonaviy masofaviy ta'limning afzalliklari, kamchiliklari va kelajakdagi imkoniyatlari, xususan, elektron vositalar orqali ta'minlanishi haqidagi eng so'nggi tadqiqotlar va g'oyalarni ko'rib chiqadi.

***Kalit so’zlar:*** *muammo, texnologiya, zamonaviy masofaviy ta'lim, elektron vositalar*

We must first examine how the term has been defined in the past and how it is currently defined in the literature before we can discuss distance learning. The term can be applied to a variety of learning scenarios. Distance learning has been around for well over a century, even though it is regarded as a new term. Correspondence courses, which were pioneered in Europe, were one of the first forms of distance learning. Until the mid-twentieth century, when instructional radio and television became more popular, this remained the primary method of distance learning. The definition of distance learning has evolved as technology has. For the past two decades, videotaped lectures have been standard in university and professional courses. For a long time, audiotapes and lessons sent through the mail have been used in correspondence courses to teach subjects like a foreign language. Today, the Internet and compressed video have taken distance learning to new heights, allowing for real-time distance learning. In the United States, live video instruction is the most popular and fastest-growing delivery method.

We need a definition that fits all situations because the history of distance learning encompasses so many different learning environments. Many definitions have been proposed in recent literature. "A planned teaching/learning experience that uses a wide spectrum of technologies to reach learners at a distance and is designed to encourage learner interaction and certification of learning," says Greenberg. The term "distance learning" has been applied to a variety of instructional methods, according to Teaster and Blieszner, "but its primary distinction is that the teacher and the learner are separated in space and possibly time." The most comprehensive definition is provided by Desmond Keegan. Distance education and training, he claims, are the result of the technological separation of teacher and learner, which relieves students of the need to travel to "a fixed place,

at a fixed time, to meet a fixed person, to be trained." We can see that the student and teacher are separated by space, but not necessarily by time, based on these definitions. Compressed video provided in real-time falls under this category. As previously said, live video instruction is now the fastest-growing kind of distant learning. As a result, a large portion of this debate will focus on the technology's benefits and drawbacks.

As technology improves and becomes more widely used, the price will fall. We've already seen improvements in compressed video and computer-assisted instruction delivery systems. Despite the difficulties that students face with remote learning, research shows that they are generally happy with what they get. In a survey of Indiana University of Pennsylvania students, 75 percent said they were extremely happy with their lectures, and 90 percent said the technology was good. Harner also researched a University of Connecticut online learning accounting course. They discovered that 57.5 percent of those who took the course said they would take it again. Two additional outcomes were largely positive, with suggestions for how to enhance the course. The first indicated that the professors should be more at ease with the medium and that students should be given more direction on how to properly use the presentation. The second demonstrated that students were extremely happy with the teachers and the course, but that direct engagement with the instructor had little effect on their contentment. Instructors appear to be one area that needs rapid attention. According to the literature, teachers' teaching approaches must be adapted to the distant learning format. Keegan demonstrates a variety of effective strategies for instructors to better prepare for the classroom, including the use of multimedia, speaking voice, and font size concerns. Instructors must also recognize and regard the technician as an essential component of the distance learning experience. Because the technician's job is unclear or there is a shared notion of a difference in status between the two, opinions and communication between the technician and the teacher are frequently not exchanged. Instructors must be inspired to appropriately prepare for lessons. The administration and their support of the program must bear some of the burdens for motivation. The necessity for the "comprehensive and intelligent evolution of remote education if it is to become the educational paradigm of the future" is underscored by the growing number of students enrolling in distance learning programs. Despite the high expense, planning, and training required, it offers "huge promise to transmit and receive educational programs to and from remote areas." Perhaps Keegan explains it best: "the task is to build cost-effective and educationally-effective methods for use in the new century of new technologies that allow for the first time in history (electronic) instruction of pupils face-to-face at a distance."

**References**

1. Bollag, B., & Overland M.A. (2001). Developing countries turn to distance education. *Chronicle of Higher Education, 47* (40), 29-31.

2. Carr, S. (2001). Union publishes guide citing the high cost of distance education. *Chronicle of Higher Education, 47* (35), 39-41.

3. Dervarics, C. (2001). Support builds for distance learning. *Community College Week*,14 (1), 3-5.

4. Dibiase, D. (2000). Is distance education a Faustian bargain? *Journal of Geography in Higher Education, 24* (1), 130-136.

5. McKnight, M. (2000). *Distance education: Expressing emotions in video-based classes.* Paper presented at the Annual meeting of the Conference on College Composition And Communication, Minneapolis, Minnesota. (Eric Document Reproduction Service No. ED 441 270).

6. Savoye, C. (2001). Distance Learning with a twist-real campus. *Christian Science Monitor*, pp. 15, 21.

# ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЛЯ СТУДЕНТОВ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ

**Атаева Рануша Рашидовна,**
Старший преподаватель
Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан
Телефон: +998998683825
ataeva.r.r@gmail.com

**АННОТАЦИЯ:** Данная работа представляет собой методические рекомендации по организации самостоятельной работы курсантов по предмету "Русский язык". Показана связь аудиторных и внеаудиторных занятий. Особо подчёркнута роль дифференцированного подхода к обучению при организации самостоятельной работы.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** самостоятельная работа, дифференцированный подход к обучению, виды речевой деятельности, перевод, уровень знаний курсантов.

Самостоятельная работа является неотъемлемой частью учебного процесса и активной деятельности обучающихся. Всестороннее развитие личности невозможно представить без самоподготовки и самообразования. «Не уметь хорошо выражать своих мыслей - недостаток; но не иметь самостоятельных мыслей - еще гораздо больший; самостоятельные же мысли вытекают только из самостоятельно же приобретаемых знаний» [1]. Однако к такому виду работы необходимо приучать с раннего детства. Уже в 19 веке великий ученый-методист К.Д. Ушинский ставил перед учителями одну из ключевых задач педагогики - научить детей учиться. «Ни один наставник не должен забывать, что его главнейшая обязанность состоит в приучении воспитанников к умственному труду и что эта обязанность более важна, нежели передача самого предмета» [1].

Правильная организация педагогом самостоятельной работы курсантов – залог успешного усвоения обучающимися учебного материала, повышения интереса к предмету и познавательной активности в процессе саморазвития.

Задания для самостоятельной работы по русскому языку должны включать все виды речевой деятельности – аудирование, письмо, чтение, говорение, а также перевод – с условием, что названные виды деятельности уже использовались на занятии. То есть тип заданий на аудирование, письмо, чтение, говорение для самостоятельной подготовки должен совпадать с типом заданий, выполненных в аудитории. Такая последовательность не утомит курсантов и даст возможность отработать все виды речевой деятельности. Таким образом курсанты приучаются к методике преподавателя, определенным действиям, последовательности, порядку, алгоритмам работы как на занятии, так и при самоподготовке.

Например, аудиторная работа, имеющая следующий алгоритм:

**Последовательность №1: аудирование/чтение/перевод.**

Задание. А) Слушайте Б) читайте В) переведите текст.

Я курсант Университета общественной безопасности. Меня зовут Ахмед. Я родился в Ташкенте. Мне восемнадцать лет. Учусь по направлению образования «Юриспруденция». После окончания университета стану юристом.

**Последовательность №2: Письмо/говорение.**

Задание. А) Спишите текст, вставьте вместо точек слова, подходящие по смыслу.

Я ………. Университета общественной безопасности. Меня зовут ……... Я родился в …….. Мне ………. лет. Учусь по направлению образования «………..». После окончания университета стану ………….

Б) Ответьте на вопросы.

Где вы учитесь? Как вас зовут/ваше имя? Откуда вы родом/ из какой вы области/города? Сколько вам лет? По какому направлению бакалавриата вы получаете образование? Кем вы станете после окончания университета?

**Последовательность №3: Чтение/перевод/аудирование/говорение.**

Задание. А) Читайте Б) переведите В) слушайте Г) перескажите Д) Сформулируйте по нему три вопроса.

Работа по методу «Мозаика», которая предполагает сбор «кусочков» текста и логическое его выстраивание. Данное задание позволяет выполнить все виды речевой деятельности.




«Ценность данного приема в том, что он развивает мышление, осмысление прочитанного текста, развивает речь, даёт возможность общения, повышает познавательный интерес, формирует навык работы с текстом» [2].

Такой же алгоритм используем и при организации самостоятельной работы, но количество и сложность заданий будет зависеть от уровня знаний курсантов, т.е. здесь будет учитываться дифференцированный подход к обучению. Именно этот подход целесообразен, когда речь идет о самостоятельной работе курсанта.

Сравним:

| Задания для курсантов с «высоким» уровнем знаний по предмету | Задания для курсантов с «хорошим» уровнем знаний по предмету | Задания для курсантов с «средним» уровнем знаний по предмету |
|---|---|---|
| Последовательность №1: аудирование/ чтение/перевод.<br>Задание. А) Слушайте Б) читайте В) переведите текст.<br>Я живу в Узбекистане.<br>Я люблю свой край родной.<br>Он хорош зимой и летом,<br>Но особенно весной. | Последовательность №1: аудирование/ чтение/перевод.<br>Задание. А) Слушайте Б) читайте В) переведите предложение.<br>Имя существительное – это часть речи, которая обозначает предмет и отвечает на вопросы Кто? Что? | Последовательность №1: аудирование/чтение/перевод.<br>Задание. А) Слушайте Б) читайте В) переведите.<br>Я курсант. Мы курсанты. Ты офицер. Вы офицеры. Он водитель. Она врач. Они преподаватели. |
| Последовательность №2: Письмо/ говорение.<br>Задание. А) Спишите текст, вставьте вместо точек слова, подходящие по смыслу<br>1. Я выполняю ……….<br>2. Мне нужно ………..<br>3. Надо знать свои ………<br>Б) Преобразуйте данные предложения в вопросительные конструкции. | Последовательность №2: Письмо/ перевод/говорение.<br>Задание. А) Спишите текст, подчеркните имена существительные.<br>Всё утро шел дождь. На улице было сыро и зябко. В такую погоду хочется быть дома, читать любимые детективы, закутавшись в одеяло.<br>Б) Назовите 5 одушевленных имен существительных женского и мужского рода и 5 неодушевленных имен существительных женского и мужского рода. | Последовательность №2: Письмо/ чтение/перевод<br>Задание. А) Спишите текст, вставьте вместо точек слова, подходящие по смыслу (Используйте слова для справок).<br>1. Я выполняю ……….<br>2. Мне нужно ………..<br>3. Надо знать свои ………<br>Слова для справок: права, домашнее задание, работать. |

| | | |
|---|---|---|
| Последовательность №3: Чтение/ перевод/аудирование/говорение. Задание. А) Читайте Б) переведите В) слушайте Г) перескажите Работа по методу «Дополни фразу»: 1. Одна голова хорошо, а ……... 2. Семь раз измерь, один ……… 3. Хлеб всему ………….. | Последовательность №3: Чтение/ перевод/аудирование/говорение. Задание. А) Читайте Б) переведите В) слушайте Г) перескажите Работа по методу «Мозаика»: Собери текст. Он родился в Хорезме **в 1199 году**. Он был старшим сыном хорезмшаха **Мухаммеда II**. **В 1218 году**, во время сражения с монголами на Тургайской долине, **Жалолиддин** своими смелыми и решительными действиями спас и армию, и отца. Во время монгольского нашествия **в 1219 году**, он призывал хорезмшаха не разделять армию и дать врагам открытое сражение в поле. Незадолго до смерти, в конце **1220 года**, Мухаммед передал ему власть. **Жалолиддина Мангуберди** считают национальным героем граждане Республики Узбекистан. **В городе Ургенче** был поставлен ему памятник. **В 1999 году** в Узбекистане были проведены достаточно масштабные мероприятия, посвященные его 800-летию. **30 августа 2000 г.** в Узбекистане учрежден высший военный орден Жалолиддина Мангуберди. **Жалолиддин Мангуберди в 1221г.** разбил монгольский отряд, осаждавший крепость Валиян, а затем дал монголам сражение у города Парван («битва при семи ущельях»). Эта битва продолжалась два дня, причем, по приказу хорезмшаха, его кавалеристы сражались спешенными. На второй день, когда лошади монголов устали, **Жалолиддина** возглавил конную атаку, которая привела к полному разгрому монгольской армии. | Последовательность №3: Чтение/ перевод/аудирование/говорение. Задание. А) аудирование Б) чтение В) перевод Г) пересказ Я курсант Университета общественной безопасности. Меня зовут Ахмед. Я родился в Ташкенте. Мне восемнадцать лет. Учусь по направлению образования «Юриспруденция». После окончания университета стану юристом. |

Данный алгоритм помогает курсанту не только с усвоением определенного учебного предмета, но и вообще учит самоорганизации и дисциплине. Важно учитывать и то, что при организации самостоятельной работы необходимо ставить перед курсантом выполнимые задачи. Если он не справляется с заданиями, то это может привести к угасанию интереса к изучаемому предмету.

**Использованная литература:**

1. https://multiurok.ru/blog/vyskazyvaniia-vielikikh-liudiei-o-vospitanii-i-obuchienii-2.html
2. https://nsportal.ru/shkola/rodnoy-yazyk-i-literatura/library/2019/12/18/aktualnye-novinki

# АХБОРОТЛИ ТАЪЛИМ МУҲИТИ ТАЪМИНОТЛАРИ ВА УЛАРДАН АМАЛИЁТДА ФОЙДАЛАНИШ

**Муқимов Маъруф Олимович,**
Жиззах давлат педагогика университети, доцент в.б
Телефон:+998945752442
maruf_olimovich@mail.ru

**АННОТАЦИЯ:** Ушбу мақолада ахборотли таълим муҳитининг турли таъминотлари ва улардан амалиётда фойдаланишнинг имкониятлари ҳақида маълумот берилади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** мураббий-ўқитувчилар, миллий спорт турлари, ахборотли таълим муҳити, профессионал таълим, ахборот технологиялари.

Ахборотли таълим муҳити (АТМ) негизида бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлаш муаммоси ечимини топиш ушбу соҳадаги замонавий талаблардан биридир. Бундай муаммолар ечими тадқиқот объектидан ахборотларни йиғиш, қайта ишлаш, сақлаш, ифодалаш ва уларни тадқиқот мақсад-вазифаларини эътиборга олган ҳолда керакли жойларга узатиш орқали ҳал этилади ва бунда компьютер ва телекоммуникация воситалари амалга ошириладиган ва тартибга солинган ҳамда ташкиллаштирилган тизим ва амалий дастурлар асосий дидактик асослар бўлиб хизмат қилади.

Умуман олганда дидактик асослар кўпроқ АТМнинг дастурий, техник, ҳуқуқий, ахборот, ташкилий, математик ва лингвистик таъминотларга боғлиқ бўлади.

Бу келтирилган таъминотларнинг мужассам мавжудлиги АТМда таълим жараёнига оид ахборот алмашинувининг оптимал вариантини қўлга киритишга кенг имкониятлар яратади ва бу ўз навбатида мутахассисларни тайёрлашдаги касбий таълим фанларни ўқитишда АТМни шакллантиришда мустаҳкам дидактик асос ҳам бўлади. Аммо, бундай имкониятлардан ҳамма ўқитувчиларимиз ҳам самарали фойдалана олавермайдилар, чунки ўқитувчи – педагогларнинг қатъий ҳаракат қилишларига қарамасдан, дарсни режалаштирилган ҳажмда тўлиқ ўтказиш жуда кам ҳолларда учрайди. Бундай ҳолларда таълим олувчиларнинг дарс давомида ўзлаштириши лозим бўлган билимлари режалаштирилганидан анча кам бўлади. Бу фарқни бартараф этиш учун профессор-ўқитувчилар турли хил усул ва технологиялардан фойдаланадилар. Аммо, бу ҳам миллий спорт турлари бўйича мураббий - ўқитувчиларни замонавий талабларга жавоб берадиган қилиб тайёрлашга етарли бўлмади. Шунинг билан бирга анъанавий таълимда ўқитиш усуллари ва технологияларида назарий ва амалиёт дарс машғулотларига спорт турлари бўйича мураббий – ўқитувчилар тайёрлаш бўйича ўқув режасида етарли миқдорда вақт бюджети ажратилган. Бу машғулотларда таълим олувчиларнинг назарий билимларни эгаллаши ва уларни мустаҳкамлаши ҳамда ўқув материалларини ўзлаштириши ва муайян йўналишлар бўйича малакаларни ошириш имконияти мавжуд. Шунинг билан бирга миллий спорт турлари бўйича мураббий - ўқитувчиларни тайёрлашдаги касбий таълим фанларини ўқитишнинг инновацион услубларини ишлаб чиқиш бугунги кундаги долзарб муаммо бўлиб ҳисобланади ва уларни мувоффақиятли ҳал этиш учун бу фанларни ўқитишга мос АТМни шакллантириш ва ундан мазкур жараёнда кенг фойдаланиш керак бўлади, чунки барча фанлар каби касбий таълим фанларини ўқитишда таълимда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш бўлажак мураббий-ўқитувчиларнинг назарий билимларини пухта ўзлаштиришга, уларга мос кўникма ва малакаларни шаклланишига ҳамда уларни амалиётда мустаҳкамлашга катта имкониятлар яратди ва булар таълим жараёнида турли тренажёрлар асосида машғулот олиб боришнинг ноанъанавий шакл, услуб ва воситаларидан фойдаланишга сезиларли ёрдам беради. Уларни қуйидаги кўринишларда учратиш мумкин:

• миллий спорт турлари бўйича мураббий - ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлашдаги АТМнинг мақсад – вазифаларини белгилаш ва ундан амалиётда фойдаланишга қулай ўқув объектини (ўқитиладиган фан, мавзу ва тушунчани) танлаш ҳамда мазкур интегратив таълим жараёнини лойиҳалаштириш имконини беради ва бунинг асосида АТМ негизида интеллектуаллаштирилган ўқув ва назарий дастурини ишлаб чиқиш мумкин бўлади;

• АТМда интерфаол таълим усуллари ва технологияларини жорий этиш имконияти кенгаяди;

• таълим жараёнидаги таълим олувчилар ўзлаштиришнинг мониторингини ҳисобга олишда тескари алоқадан самарали ва ўз вақтида фойдаланиш имконияти яратилади ва бунинг натижасида АТМда олиб борилаётган дарс машғулотларида дарс режаси ва мазмунини тезкорлик билан ўзгартиришга шароит яратилади;

• АТМда дарс машғулотини олиб боришда визуал материаллардан ва анимациялардан фойдаланишга ва интеллектуаллаштирилган ўқитиш тизимларини жорий этиш имкониятини кенгайтиради;

• ўқитувчи касбий таълим фанларини ўқитишда таълим олувчи шахсини шакллантириш, ижодий изланиш ва фаол ўқув фаолиятини ташкил этишда АТМи ёрдамида янги имкониятларга эга бўлади. Бу эса таълим жараёнида ахборот – коммуникацион технологияларининг жорий қилиниши таълим берувчи ва таълим олувчиларнинг турли кўринишдаги матнлар (миллий қадриятларга тегишли маълумотлар) ва лавҳалар (Спорт турлари бўйича “Ўзбекистон ифтихори” рукнида тайёрланган лавҳалар, видеоклиплар, спрот иншоатлари ва ҳ.к.) билан ишлашлари учун кенг имкониятлар вужудга келади;

• таълим олувчилар хоҳлаган пайтда миллий қадриятларга оид бой тарихий материаллар, халқ оғзаки ижодидаги миллий спорт турларига оид маълумотлар ва лавҳалар, “Умид ниҳоллари”, “Баркамол авлод”, “Универсиада” каби спорт тадбирлари ҳақидаги бой материаллар билан танишиш имкониятига эга бўлади;

• АТМда таълим олувчилар учун миллий спорт турлари бўйича мураббий – ўқитувчиларни касбий фаолиятга тайёрлаш жараёнига миллий – маънавий қадриятлар бўйича маълумотлар базасини шакллантириш ва улардан таълим мазмунини бойитишда фойдаланиш механизмини ишлаб чиқиш имкониятини беради;

• таълимда педагогик мақсадга эришишдаги ахборотлаштирилган ёндашувларга эса фақатгина АТМ ёрдамида эришиш мумкин ва шу кабилар.

Ушбу соҳада олиб борган изланишларимиз қуйидагидек хулосаларни шакллантиришга имконият яратади:

1. АТМ ёрдамида таълим олувчиларнинг ўз мутахассисликлари бўйича билимлари банки ва таълим жараёнига хос технологик жараён ҳамда хариталарни тадқиқ этиш самарали кечади;

2. АТМ негизида таълим олувчилар таълим муассасидаги интернет тармоғи орқали дунёнинг исталган мамлакатидаги етук олимларнинг маъруза ва амалий машғулотларидан баҳраманд бўлиши ва шу каби ҳолат ёки жараёнлардан хабардор бўла олади;

3. АТМда интерфаол таълим усуллари ва технологияларини жорий этиш имконияти кенгаяди;

4. Таълимда педагогик мақсадга эришишдаги ахборотлаштирилган ёндашувларга эса фақатгина АТМ ёрдамида эришиш мумкин ва шу кабилар.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Тўрақулов О.Х. Ахборотлаштирилган таълим муҳитида кичик мутахассислар тайёрлашнинг илмий – методик таъминоти. Монография. – Т.: ЎМКҲТТКМО ва УҚТИ, 2010, 156 б..

2. Муқимов М.О. Бўлажак кичик мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг илмий – назарий ва педагогик асослари. Монография. Т.: Fan va texnologiya, 2013, 212 б.

3. Тўрақулов Х.А., Муқимов М.О. Бўлажак кичик мутахассисларни мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашни ахборотлаштири. Монография. – Т.: Fan va texnologiya, 2014, 174 б.

# КОМПЬЮТЕРНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ

**Эгамбердиева Гузал Мадияровна**
кандидат филологических наук, профессор кафедры
«Изучения языков» Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан
+998974342174
guzal.egamberdieva.76@mail.ru

**Аннотация:** В данной статье даются определения терминам «информационные технологии» и «компьютерные технологии», а также рассматривается эффективность использования компьютерной  технологии в  процессе преподавания

**Ключевые слова:** Информационные технологии, компьютерные технологии, современные средства обучения, этапы урока.

Образовательные технологии, которые используют специальные технические информационные средства в обучении (компьютеры, проекторы, аудио, кино, видео) называются информационными технологиями обучения.

Позже, когда компьютеры стали широко использоваться в образовании появился термин «новая информационная технология обучения». Но известный ученый Г.К. Селевко считает более удачным понятием для технологий обучения, использующих компьютер – термин «компьютерная технология» [1].

Компьютерные технологии обучения – это процессы подготовки и передачи информации учащимся, при осуществлении которых используется компьютер.

В последнее время термин «информационные технологии» используется как синоним термина «компьютерные технологии», потому что все информационные технологии тесно связаны с применением компьютера. Однако, «компьютерные технологии» являются частью «информационных технологий».

На современном этапе в нашей республике осуществляется компьютеризация как школьного, так и высшего образования.

«Необходимо выделить основные направления внедрения компьютерной техники в образовании:

– применение компьютера на занятиях в качестве средства обучения, улучшает процесс преподавания, увеличивает его качество и эффективность;

– использование компьютера в качестве средства автоматического контроля, коррекции знаний, проведения тестирования и т.п.;

– при помощи средств информационных технологий происходит обмен педагогическим и методическим опытом, учебной литературой;

– средства современных информационных технологий так же используются для организации интеллектуального досуга;

– на основе использования системы современных компьютерных технологий совершенствуется управление учебным заведением и учебным процессом» [1, с.137].

«К достоинствам компьютерной поддержки как одного из видов использования новых информационных технологий в обучении можно отнести следующие: возможность конструирования компьютерного материала для конкретного урока; возможность сочетания разных программных средств; а также побуждающий аспект активизации деятельности учащихся» [2].

Компьютер на урочных и внеурочных занятиях по словесности используется как: источник учебной информации, наглядное пособие с возможностями мультимедии и телекоммуникации; тренажер; средство диагностики  и контроля; текстовой редактор. Так же уроки с использованием компьютера лучше всего чередовать с обычными занятиями. Компьютеры необходимо применять только там, где это целесообразно, они должны стать одним из компонентов учебного процесса. Например, информационные компьютерные технологии часто используются для составления планов учебных занятий, подготовки печатных материалов к урокам, подготовки презентаций и мультимедий, подготовки проектов.

Вышеуказанные возможности компьютера способствуют не только формированию лич-

ности ребенка, но и выявлению, развитию у него способностей, выработки умений и желания учиться, реализации усвоения в полном объеме знаний и умений.

На время урока, когда основное обучение и управление передается компьютеру, преподаватель получает возможность следить, контролировать самостоятельную работу студентов [3].

«Компьютерные средства обучения являются интерактивными, так как они имеют способностью «откликаться» на действия ученика и учителя, «вступать» с ними в диалог, что и является главной особенностью методики компьютерного обучения» [1, с.135].

В настоящее время многие преподаватели используют в своей методике компьютерные технологии, понимая большое влияние этой технологий на процесс образования. Однако, процесс информатизации образования не быстрый, он является постепенным и непрерывным.

**Литература**:

1. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - 256 с

Федорова Г. Н.. Использование информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе http://xn----btb1bbcge2a.xn--p1ai/blog/2017-02-21

2. Эгамбердиева, Г. М. (2020). Эффективность использования технологии полного усвоения знаний в воу. XV1 Виноградовские чтения, 200-203.

# XORIJIY TILLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI

**Abdullaeva Kunduzhon Rustamboy qizi**
Xiva tumani 9-son maktab
Telefon: +998 (99) 455 75 93
abdullaevakunduzhon_9scool@inbox.uz
**Ro'zmetova Ozoda Rustamovna**
Bog'ot tumani 15-son maktab o'qituvchisi
Telefon: + 998 (90) 434 41 43
ozodarustamovna_15@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyati hamda, til o'rganish davrlari haqida.
***Kalit so'zlar:*** Xorijiy tillar, zamonaviy metodlar, til o'rganish, boshlang'ich sinflarda chet tili.

Bugun yurtimizdagi har bir umumta'lim maktablari xorijiy tillarni katta qiziqish va ishtiyoq bilan o'rganmoqda. Ta'lim muassasalariga ilk bor qadam qo'ygan boshlang'ich sinf o'quvchilarining xorijiy tillarni qunt bilan o'rganayotgani, bunda mashg'ulotlarning og'zaki va o'yin tarzida olib borilayotgani alohida e'tiborga molik.

Mamlakatimizda chet tillarni nafaqat maktablarning boshlang'ich sinflarida, balki uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida mukammal o'rgatish samaradorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror bu borada asosiy hujjat bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu qarorda chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion uslublarni joriy etish, chet tillarda erkin so'zlasha olish, o'zaro hamkorlik va muloqotni yo'lga qo'yishda zarur barcha shart-sharoitlarni yaratib berish kabi vazifalar alohida belgilangan.

2013-2014-o'quv yilidan boshlab xorijiy tillarni boshlang'ich sinfdan o'qitila boshlangani chet tillarni puxta egallash, yoshlikdan ko'nikma hosil qilib borish imkonini bermoqda. 1-2-sinflar uchun ingliz tilidan yaratilgan darsliklar o'quvchilar o'rganishi uchun osonligi, rang-barangligi, o'yin, audio-video materiallariga tayangan holda va milliy an'analarimizga asoslanib tayyorlanishi uning muhim jihatlaridan hisoblanadi. chunki o'quvchi qaysi xorijiy tilda gapirishidan qat'i nazar, o'zbekona ismlarni, milliy qahramonlarimiz nomini yod aytadi, xalq o'yinlari, urf-odatlarini tushuntirib beradi.

Ta'kidlamoq kerakki, xorijiy tilni o'rganishda asos ona tili bo'lmog'i lozim. Chet tilini samarali egallash faqatgina o'quvchining o'ziga bog'liq bo'lmay, balki uni o'rgatayotgan o'qituvchining malakasiga ham bevosita bog'liq. Bu maqsadga erishishda yordam beruvchi asosiy omil o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirining samaradorligini oshirishdan, darslarda o'quvchi va o'qituvchi orasidagi muloqotning ijtimoiy-psixologik jihatdan o'zaro mosligidan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tez charchashi, diqqatining ixtiyorsizligi, eslab qolish darajasi hali yetarli darajada rivojlanmaganligi ularning yosh va psixologik xususiyatlariga xosdir. Ma'lumki, ushbu yosh davrlarida o'yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Negaki 3 yoshdan boshlab 6,7 yoshgacha bo'lgan bolalarda o'yin faoliyati va uning ahamiyati boshlang'ich sinflatda ham yo'qolmaydi, chunki, chet tilida o'yinning ta'limiy imkoniyatlari keng bo'lib, belgilanhan mavzu bo'yicha talab etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarga o'yin orqali erishish mumkin. Ma'lumotlarda e'tirof etilishicha, chet tili bo'yicha maxsus mashqlarni 4 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'rgatish ijobiy natija beradi.

Buning uchun boshlang'ich sinflardan boshlab chet tilini o'rgatishda darslarda o'yin usulidan foydalanish samarali bo'lib, bunda bolalarning kommunikativ ko'nikmalari, aqliy imkoniyatlarining safarbar etilishi, ta'limiy qobiliyatlari, gapirish malakalari, ijodiy tashabbuskorlikni rivojlantiruvchi usul - ingliz tilining vositalari yordamida tasavvur qilish qobiliyatlari kengayadi. Bunda lug'at boyligi faollashib, maqsad shakllanadi. Tasvirlab berish orqali esa o'quvchilarni so'z boyliklaridan foydalangan holda muloqot jarayoniga jalb qilish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannim yazikam. M. ARKTI-2004
2. Hazratqulov U.M, Usmonboyeva M.N, Rustamova S.S. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. O'quv uslubiy tavsiya/ Toshkent - 2016

# BOSHLANG‘ICH SINFLARNING O‘QISH DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Abdullayeva Ilmira Razzakberganovna**
Urganch shahar 28-son maktab o’qituvchisi
Telefon: + 998 (97) 459 81 64
abdullayeva.ilmira_28@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish haqida.
***Kalit so‘zlar:*** Innovatsiya texnologiya, pedagogik yangilik, innovatsion jarayon, innovatsion faoliyat.

Innovatsiya – (inglizcha “Innovation” – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o‘zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o‘z ichiga oladi (ilmiy g‘oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasidir. Innovatsiya – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o‘zlashtirishni va targ‘ibotini o‘rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – yangilikning kiritilishi va shart – sharoitlari, tizimni yangi ko‘rsatgichlarga muvaffaqiyatli o‘tishini ta’minlovchi o‘zgarishdir. Innovatsion o‘zgarishlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorlarining mavjud me’yorlar bilan to‘qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir (V.I.Slobotchikov). O‘qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim va markaziy masalasi o‘quv jarayonini sifatli va samarali tashkil etishdan iborat. Bu faoliyat shaxsan o‘qituvchini o‘zigagina taaluqli bo‘lib qolmay, bir qator shaxs, guruh, omma, institutsion masshtabda ham bo‘lishi mumkin.

Siz bilan bilim va tarbiya gulini hosil qilamiz. O‘quvchilarga gul yaproqlari tarqatiladi. Unga o‘quvchilar bugungi darsda qanday bilim, tarbiya olganliklari haqida fikrlarini izhor qilib yozadilar. Unda har bir o‘quvchi individual ishlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida ta’lim jarayoni axborot bilan ta’minlash rivojlanib boradi. Natijada o‘quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo‘lib qoldi. Bu holatdan chiqish uchun darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tshkil etish o‘qituvchining bu faoliyatini amalga oshirish uchun tayyorgarlik darajasi. Innovatsion muammolarni hal etish muhim zamonaviy ilmiy fkrlash yo‘nalishlariga qo‘shish. Innovatsion jarayonlarni o‘rganish. Innovatsion pedagogik muammolarni yechish ta’lim sohasida innovatsion jarayonlarning borish xussusiyatlari o‘rganishdan iborat.

Innovatsiyani tanlashda pedagogik tizimda yaxlit pedagogik o‘quv yurti, pedagogik nazariya, o‘qituvchi, o‘quvchilar pedagogik texnologiyasi, ma’lum shakl, metod, vositalar, boshqaruv maqsad va natijalar muhim hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf ta’limida o‘quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo‘lib, o‘quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o‘quvchining ta’lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo‘lib, ularni muntazam ravishda nazorat qilib borish lozim bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**:

1. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 2006-2007 yillar (4-8-son).
2. Maktab va hayot jurnali. 2006-2007 yillar (3-7-son).
3. Ma’rifat gazetasi. 2007 yil.

# TEXNOLIGIYA FANIDAN TO‘GARAKLARNI TASHKIL QILISH

**Aslamova Umida Kaxorovna**
Urganch shahar 28-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (97) 510 34 88
aslamova.umida_28@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola texnologiya fanidan to‘garaklarni STEAM ta’limi asosida to‘garaklarni tashkil qilish haqida.
***Kalit so‘zlar:*** Mexatronika, robototexnika, to‘garak, zamonaviy kasblar, dasturlash.

Texnologiya ta’limining muhim jihati shundaki, texnologiya ta’limi barcha fanlarda o‘quvchilarning egallagan bilimlarini amalda ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, texnologiya fanining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga kasblar haqida to‘liq ma’lumot berish va ularni kasb- hunarga yo‘naltirish hisoblanadi. ”Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi”ning ishlab chiqilishi texnologiya darsi dasturiga tub burilish bo‘ldi. Bunda sinflar kesimida dasrlarning uzluksizligi ta’minlanganligi, “Mexatronika, robototexnika” bo‘limlarining kiritilishi juda muhimligi bilan ajralib turadi.Texnologiya faniga yangidan kiritilgan “Mexatronika va robototexnika” bo‘limlari o‘quvchi yoshlarni kelajak hayotga tarbiyalashda, zamonaviy kasblarni egallashlarida muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar robototexnikani o‘rganish orqali turli dasturlash tillarini o‘rganadilar. Robot yasash jarayonida o‘quvchilar boshqa qator fanlardan egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llaydilar. Uni dasturlashda esa informatika fanidan egallagan bilimlarini namoyon qiladilar, boshqa dasturlash tillarini ham o‘rganishlariga to‘g‘ri keladi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlarsiz insonning hayotini

tasavvur qilish qiyin. O‘quvchilarimiz “One Million Uzbek Coders” loyihasida ishtirok etib, ”Coursera” kurslarida ta’lim olib, IT sohasida ham ko‘pgina yutuqlarga ega bo‘lmoqdalar. Innovatsion texnologiyalar jamiyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Maktab o‘quvchilarini hozirda dasturlash, modellashtirish, dizayn-loyihalash, robototexnika, robot dizayni sohalari qiziqtirmoqda. Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish STEM ta’limi dasturining asosini tashkil etadi. Bunda o‘quvchi bilim va izlanishlari asosida loyihalash ishlarini bajarishi kerak bo‘ladi. Amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, amaliyotda foydalanish, konstruksiyalash, texnik ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishga qaratiladi.

O‘quvchilarga “Mexatronika, robototexnika” ga oid bilimlarni berish, STEAM dasturini amalga oshirish vazifalarini to‘garak mashg‘ulotlarida amalga oshirish mumkin. To‘garak mashg‘ulotlarini tashkil qilishda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish kerak:

1. Tanlash erkinligi (O‘quvchiga kichik bo‘lsa ham tanlash erkinligini berishimiz kerak. Masalan, ularga bir biror narsani yasash vazifasini berib yasash uchun materialni (yog‘och, karton, fomeks, tunuka) tanlash imkonini berishimiz mumkin.

2. Bajarish uchun qadamlar. Berilgan vazifani bajarishda o‘quvchining qo‘ygan qadamlarini tanlash imkonini beramiz. Bunda o‘quvchi o‘ziga bo‘lgan ishonch hissini tuyadi va o‘zi mustaqil harakat qilib, qobiliyatlarini namoyon qiladi.

3. Kutilmagan vaziyatlar. Amaliy ish davrida kutilmagan vaziyatlarning bo‘lishi ham muhim. Masalan, tayyorlanadigan buyum uchun ketadigan xom ashyoni aniqlash vahokazo.

4. Ta’limda ochiqlik bo‘lishi ham muhim. Bunda berilgan topshiriq( hammaga bir xil ) bo‘yicha bajarilgan mashqlarni hamma ko‘rib turadi, o‘quvchilar bir- birlariga ko‘maklashadilar, xatolari bo‘lsa tuzatadilar, bir- birlariga yordam beradilar.

Texnologiya fanidan to‘garaklarni tashkil qilish muhim masala. Shunday ekan, to‘garaklarni an’anaviy bo‘lib qolgan mavzularda emas, balki, zamonaviy talab darajasidagi mavzularda tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Innovatsion texnologiyalar: nazariya va amaliyot” Toshkent 2011
2. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi 2021

# BIOLOGIYA DARSLARIDA O’QUVCHILARNI KASBGA YO’NALTIRISH USULLARI

**Avezova Muazzam Odambayevna**
Xiva tumani 18-son maktab o’qituvchisi
Telefon: +998 (88) 517 70 76
avezovamuazzam_18@inbox.uz
**Ismailova Moxira Baltabayevna**
Shovot tumani 37-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 434 83 25
ismailova.moxira_37@mail.ru

***Annotatsiya*:** Ushbu maqola botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, sitologiya va genetika asoslari darslarida xar-xil turdagi dars mashg’ulotlari o’tkazish orqali o’quvchilarni fanga qiziqtirish va kasbiy ko’nikmalarni shakllantirish haqida.

***Kalit so’zlar:*** Kasbga yo`naltirish, botanika darslari, odam va uning salomatligi darslari, sitologiya va genetika asoslari darslari, ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar, xalq tabobatida.

Biologiya darslarida o`quvchilarni kasbga yo`naltirish uchun biologik bilim beribgina qolmasdan bu bilimlarni hayotga tadbiq qilishni chuqur o`rgatish lozim.

Agar o`quvchilar har bir fandan olgan bilimlarini hayotga tadbiq etolmasa, amalda ulardan foydalana olmasa, bu fan quruq fan bo`lib qolaveradi, o`qituvchining mehnati zoyo, o`quvchining vaqti behudaga sarflangan hisoblanadi.

O`quvchilarni kasbga yo`naltirishda biologiya fanining tutgan o`rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu fan hayot haqidagi fan bo`lib o`quvchilarni tirik tabiatni bizni o`rab turgan borliqni o`rganishga, unga do`sona munosabatda bo`lish, muhofaza qilish, avaylab asrashga oquvchilarni o`rgatadi. Shu bilan bir qatorda oquvchilarga dunyoviy bilimlar berishga asoslanadi. Fanning o`qitish nazariyasi o`quvchilarni kasbga yo`llashda muhim ahamiyatga egadir. Biologiya o`quv fanini o`qitishni boshqa fanlardan farqi shundaki u faqatgina nazariy bilimlar berib qolmasdan amaliyotga tayanadi. Laboratoriya va amaliy mashg`ulotlar, ochiq tabiatga va tarixiy joylarga sayohatlar tashkil qilish. O`quvchilarni fanga bo`lgan qiziqishini oshiradi va kasb tanlashga undaydi.

Botanika darslarini o`qitishda o`quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o`qituvchi qiziqarli dars mashg`ulotlarini tashkil qilishi. Masalan: “Dorivor o`simliklar” mavzusini o`rganishda o`quvchilar o`simliklarni shifobahshlik xususiyatlarini o`rganadilar va ulardan kundalik hayotida foydalanishga harakat qiladilar. Xalq tabobatida ham bunday o`simliklardan foydalanish inson salomatligini saqlashni muhim omili ekanligini o`quvchilar anglab yetadilar. Shuni bilan bir qatorda ularning o`zlari dorishunoslik kasbiga mehir qo`yadilar. “O`g`itlash” mavzusini o`rganish orqali o`quvchilarda agranomiya sohasiga qiziqish oshadi. (O`simliklar sistematikasini bobini o`rganish orqali o`quvchilarda seleksionerlik, bog`bonlik kasbiga havas uyg`onadi).

Odam va uning salomatligi o`quv fani o`quvchilarni asosan shifokorlik kabini tanlashga yaqindan yordam beradigan o`quv fani hisoblanadi. O`quvchilar bu fanni o`rganish orqali o`z salomatligini saqlashni, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishni o`rganib oladilar. Buni esa sog`lom turmush tarzini shakllantirishda ahamiyati katta bo`lib o`quvchilarni jismonan baquvat bo`lishga undaydi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya o`qituvchilari, murabbiylik kasbiga ham yo`naltiradi.

Sitologiya va genetika asoslari darslarida o`quvchilar tirik tabiatning o`zaro birligi, bog`liqligini, elementar birligi hujayra ekanligini bilib oladilar. Bu fanni o`rganish orqali o`quvchilarni genetika, seleksiya faniga bo`lgan qiziqishlari yana ham oshadi. Ayniqsa hozirgi kunda dolzarb masalaga aylangan sog`lom turmush tarzini shakllantirish, reproduktiv salomatlikka o`quvchilarda qiziqish kuchayadi. Shuning uchun ham o`quvchilarni genetiklar, seleksanerlar, biologlar kabi hodimlar bo`lib yetishishiga zamin yaratadi.

O`qitilayotgan fanlarga qiziqishlariga qarab o`quvchilarni uch gruhga bo`lish mumkin.

1. Ijtimoiy fanlarga qiziquvchi o`quvchilar.
2. Tabiiy fanlarga qiziquvchi o`quvchilar.
3. Umum ta’lim maktablarida o`rganilayotgan barcha fanlarga qiziquvchi o`quvchilar.

Ayrim o`quvchilar o`z tanlagan kasblarini o`zi qiziqqan fan bilan bog`lab, «Men biologiya talab qiladigan sohada ishlashni hohlayman» deydilar.

Biologiya fanini maktabda o`qitilayotgan boshqa fanlarga, jumladan ishlab chiqarishga, texnikaga, qishloq xo`jaligiga, medisinaga bog`lab o`tish mumkin. Men quyida o`rta maktab biologiya fanida o`qitilayotgan ba'zi mavzularni turli kasblarga qanday bog`lash mumkinligiga misollar keltiramiz:

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'qitishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Toshkent-2014 y.

2. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo'llanma. - T.: TDPU, 2014 yil. 6,5 b.t

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI CHIROYLI YOZISHGA O‘RGATISH BO’YICHA AYRIM MULOHAZALAR

**Babadjanova Gulsara Jumanyozovna**
Xorazm viloyati Urganch shahridagi
6-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozishga o‘rgatish bo’yicha ayrim mulohaza va tavsiyalar keltirib o’tilgan.
**Kalit so‘zlar:** husnixat, chiroyli yozuv, boshlang‘ich sinf, yozuv malakasi, og’zaki va yozma nutq, o’quvchi, talab, ta’lim.

Chiroyli yozishni o‘rgatish o‘quvchilarga o‘z fikrlarini nafis harflarda bayon etish imkoniyatini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chiroyli yozishni o‘rgatish savodxonlikning poydevori hisoblanadi. O‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, go‘zallikga intiluvchi, uni yurakdan his qila oladigan, go‘zallikni yaratishga intiladigan o‘quvchi sifatida voyaga yetkazish, kichik yoshdagi o‘quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o‘rgatish orqali ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirishning usul va yo‘llarini yanada takomillashtirish, Respublikamizdagi barcha umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining husnixatini chiroyli, talab darajasida bir xil yozish malakalarini shakllantirish barcha boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bola kamolotining shakllanishi ko‘p jihatdan chiroyli yozuvga bog‘liq. O‘quvchilar chiroyli yozish orqali boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli o‘zlashtirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Har bir insonning hayotida yozuv muhim o‘rin tutadi, chunki biz har kuni turli-tuman qog‘ozlar va hujjatlardan foydalanamiz. Bularning barchasi chiroyli va xatosiz yozishni taqozo etadi. Chiroyli yozishga o‘rgatish uchun bola bilan maktabga qadam qo‘ygan kundan boshlab izchil, mukammal mashqlar olib borish, takomillashtirilgan metodika yordamida vazifani amalga oshirishimiz shart. O‘qituvchi bitta xatoga yo‘l qo‘ysa, o‘quvchining husnixati va yozuv malakasi talab darajasida shakllanmaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chiroyli yozuvni o‘rgatish uchun ham tashkiliy ham mazmuniy talablarga birdek rioya qilishi lozim bo‘ladi. O‘quvchining ko‘p vaqti darsxonada o‘tganligi sababli sinf xonasi, parta, sinf doskasi, daftar, ruchkalar gigienik va pedagogik talablarga javob bergan holda tashkillashtirilishi, mazmuniy jihatdan har bir harfni, harf unsurlarini to‘g‘ri bog‘lab yozish, ular orasidagi masofani bir xilda saqlash, sinfdagi barcha o‘quvchilarni bir xil tezlikda ravon qilib yozishga o‘rgatish metodikasini ya’nada takomillashtirish talab etiladi.

Boshlang‘ich ta’lim nafaqat ta’limning poydevori, boshlang‘ich ta’lim – shaxs kamolatining ham poydevori ekanligini hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Bolaning boshlang‘ich sinfdagi faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, chiroyli yozish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchining savodxonligini chiqarishda asosiy va muhim ishdir. Agar muallim boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarning fe’l-atvorini, qobiliyatlarini, partada to‘g‘ri o‘tirish, ruchkadan to‘g‘ri foydalanish, harflarning shaklini to‘g‘ri tasavvur etish, bir xil qiyalikda yozish, harflar orasidagi masofani to‘g‘ri yozishni individual kuzatib borish uslubini yaxshi bilmasa, yoki yetarli e’tibor bermasa, uning mustaqil fikr yurita olishi, ichki qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishni o‘rgatmasa, yetaklay bilmasa, chiroyli yozish malakalarini shakllantirmasa, bolaning savodxonligi talab darajasiga ko‘tarilmaydi.

Ma’lumki, inson shaxsining shakllanishida bolalik yillari, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi davri muhim ahamiyatga ega. Bola shu yoshida hamma narsaga qiziquvchan, har bir narsani so‘rab o‘rganishga oshiqqan davridir. Ruxshunos olimlarning ta’kidlashicha, “Insonning yozuvi uning qiziqishi va psixologiyasini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi”. Shu bois, o‘quvchilarning mukammal og‘zaki nutqini yozma bayon etishda yozuv muhim ahamiyatga ega.

Yozuv muayyan bir tilda qabul qilingan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Darhaqiqat, yozuv kishilarning o‘zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vosita bo‘lib, kishilik tajribasini avloddan-avlodga yetkazmoqda. Yozuv borligi uchungina biz tilimizning tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lamiz, ajdodlarimizning kelajak avlodlarga qoldirgan merosini o‘rganib, ularni tilimizning hozirgi bosqichi bilan qiyoslab o‘rgata olamiz.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodini chiqarishda, o‘qish va yozish malakalarini

shakllantirishda o‘zining bor kuchini, jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini sarflaydi. Taniqli o‘zbek metodisti M.G‘ulomov “O‘quvchilarga dars jarayonida bajariladigan mashqlar oson bo‘lib, kam vaqt olishi, ularning jismoniy jihatdan o‘sishlariga, qo‘l muskullarining mukammallashishiga va qaddi – qomatlarini to‘g‘ri, erkin tutishlariga yordam berishi lozim. Yozuv darslarida o‘quvchilar betoqat bo‘lib, orqalariga yoki yonlariga yastanib o‘tiradilar, o‘rinlaridan turib ketadilar, bu ularning charchaganlarini bildiradi”, - deb ta’kidlab o‘tgan. Darhaqiqat, 1-sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish bir muncha murakkab bo‘lib, o‘quvchilar o‘qituvchining so‘zini tinglaydilar, yozgan harf va so‘zlarni ko‘rib boradilar, ayrimlarini ko‘chirib yozadilar, nuqtalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo‘yaydilar. Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Ayrim vaqtlarda o‘quvchilarni chiroyli yozishga o‘rgatishni boshlashdan oldin to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini tushuntirib berishi, darsning o‘rtalariga borib bu qoida ularning esidan chiqib qoladi, shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga to‘g‘ri o‘tirish qoidalarini eslatib turishi kerak.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini yozma bayon etishda yozuv muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham o‘quvchilarning yozuvi uning qiziqishi va psixologiyasini aniqlashda asosiy omil hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Nurmetova Z. Chiroyli husnixatning qadri. Ma’rifat. 16.07.2020.
2. Azimov Yu.,Qo`ldoshev R. Husnixatga o`rgatishning amaliy asoslari. Buxoro, 2012, 5-bet.
3. Gulomov M. Husnixat metodikasi. T.,O’qituvchi 1976.
4. Internet malumotlari.

# BIOLOGIYA DARSLARIDA NOAN'ANAVIY TA'LIM YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

**Bardiyeva Rayxon Xakimboy qizi**
Hazorasp tumani 52-son maktab oʻqituvchisi
Telefon: +998 (99) 509 20 23
bardiyevarayxon_52@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola biologiya darslarida noan'anaviy ta'lim yondashuvlaridan foydalanish metodikasi haqida.

***Kalit so`zlar:*** Noan'anaviy ta'lim, texnologiya, video, podkast, ommaviy axborot vositalari, sayohat, minegraft.

O'quv materiallari formatida ozgina xilma-xillik yaratish biologiya darslarini yanada jonli qilishi mumkin. Biologiya fanidan mavzularni ma`ruzalar orqali tushuntirishdan va darsliklardan tashqari video, podkast va boshqa ommaviy axborot vositalarini qo'shish dars jarayonining qiziqarliligini ta'minlaydi.

Texnologiya va biologiyani qo`shish maqsadga muvofiq. Texnologiyalarga qiziquvchilar uchun biologiya bilan aloqalarini chuqurlashtirish uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud va aksincha. O'qitishning yangi va qiziqarli usullaridan foydalanish mumkin. Masalan: dars jarayonida, shu jumladan biologiya kurslarida mashhur Minecraft o'yinidan foydalanishga bag'ishlangan manbalar mavjud.

O`quvchilar biologiya fanidan berilgan topshiriqlar uchun texnologiyadan foydalanishga ruxsat berish lozim. Masalan, veb-dizaynga qiziqadigan o`quvchilar biologik tushunchani aks ettirish uchun veb-sayt ishlab chiqishlari mumkin.

Biologiyani o'qitish uchun ilmiy o'yinlardan foydalanish. O'quv o'yinlari ko'rinishidagi ozgina do'stona raqobat biologiya darsini mazza qilishning yaxshi usuli bo'lishi mumkin.

Biologiya markazida o'tkaziladigan ekskursiyalar. Darsdan tashqarida vaqti-vaqti bilan sayohat yaxshi sur'atlar bilan o'zgarishi va o`quvchilarning biologiya haqidagi tushunchalarini boyitish uchun yaxshi imkoniyat bo'lishi mumkin.

- Botanika bog'i
- Hayvonot bog'i
- Ferma
- Tadqiqot laboratoriyasi

Turli xil ta'lim va o'qitish uslublarini sinab ko'rish

O'qitishga turli xil yondashuvlarni sinab ko'rish mumkin. Ba'zi o'rganish passiv (o`quvchilar bilimlarni o'qituvchidan oladi), ba'zilari esa faol (o`quvchilar mavzularni o'rganish va tushunish uchun ko'proq mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar). Har qanday sinfda ikkala tur uchun ham joy mavjud. Eng muhimi, ikkalasining to'g'ri aralashmasi va muvozanatini topishdir. Turli xil o'qitish usullarini o'z ichiga olinadi, shu jumladan:

- Ma'ruza
- Kooperativ o'rganish (talabalar bir-birlariga mavzu haqida ma'lumot olishda yordam berishadi)
- Kontseptsiyani xaritalash
- Munozara
- O'qish
- Amaliy mashg'ulotlar

Ma'ruzalarni ishtirok etish. Ko'pincha ma'ruzalar o`quvchilarga ma'lumot taqdim etishning eng samarali usuli hisoblanadi. Biroq, o`quvchilar ham, o'qituvchilar ham ma'ruzalar ko'proq interaktiv bo'lishini xohlashadi. Vaqti-vaqti bilan o`quvchilarga savollar berish orqali sokratik usuldan foydalanish mumkin.

Talabalarni ma'ruzaga oldindan tayyorlangan savollar bilan kelishlarini so'rash.Keyin ularning ba'zi savollariga murojaat qilish mumkin. Bu o'quvchilarga ularni tinglashlarini bilishlariga imkon beradi.

Talabalar dars paytida norasmiy viktorinalarga yoki so'rovlarga javob berishlari uchun iClickers yoki shunga o'xshash texnologiyalarni ma'ruza kurslariga qo'shishni o'ylab ko'rish.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Tolipova J.O., Azimov I.T., Sultonova N.B. Biologiya darslari. (Oqituvchi kitobi). Metodik qoʻllanma. (9-sinf) "Tafakkur" nashriyoti. Toshkent, 2016

# THE ORIGINS OF GLOBALIZATION OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE MODERN WORLD

**Kodirova Mohira Rashidovna**
Shovot tumani 42-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (99) 757 95 33
mohira.rashidovna_42@inbox.uz

***Annotation:*** In this article highlights of the serve as suggestions for the study of the processes and features of intercultural communication.

***Key words:*** universal, culture, intercultural communication, socio-cultural approach, history, status, foreign languages.

In this paper we will study the following problems as: the origins and causes of the spread of the English language;the reasons for the increasing role of the English language in the modern world; whether there is a relationship between the well-being of the population and their knowledge of English. This issue can be solved only in two dimensions: historical-geographical and socio-cultural.

First of all, taking into account the historical and geographical facts, it happened due to the active life position of the English seafarers. Their first expeditions were sent to such countries as Asia, Australia, America, Africa, New Zealand, India, etc. Such expeditions had a specific purpose — colonization of peoples and territories, enrichment. With the rights to the native language of the local population, no one was considered.

So the English language spread to England in the fifth century and came there from Northern Europe, then it spread to the territory of the modern British Isles. In the xI century was the Norman conquest of England, and many members of the nobility were forced to migrate North to Scotland, for this reason, the English language began to spread in this country.

In XII century English began to spread in Ireland due to the numerous military campaigns of the Anglo-Norman knights. By the end of the xII century Ireland finally fell and fell under

English domination. Since the end of XV and the end of XVI centuries began active conquest of America. Due to the natural process of assimilation of immigrant families who came to America from Europe, English has become much more widely used as a mother tongue. In other words, more than 90 % of the population speaks English in modern America.

At the same time, the spread of English in canada. For the first time speech in English sounded at the end of the xV century. At the beginning of the XVI century, African slaves were brought to America to work on sugar plantations. America’s population grew rapidly through the forced migration of black slaves. The children of these slaves also began to learn English, and therefore it became perceived as their mother tongue. Meanwhile, the prestige of the English language grew in the world. In the XVIII century, English sailors began to actively explore the southern hemisphere of our planet, for example, Australia and New Zealand.

Australia was inhabited by British prisoners, as the authorities of England sought to release the country’s prisons. colonization of New Zealand was not so fast, however, and here there was an inevitable spread of the English language among the local population due to a decent influx of immigrants from England. Our work is devoted to the analysis of political and cultural events of the British Empire.The study of the geopolitical situation in England indicates its powerful colonial policy. For example, I. Pitman in 1873 wrote that this Empire occupies about a third part, and its subjects make up a quarter of the entire population of the planet.

Analysis of colonial policy in England showed that the appetite and aggression of this country has no boundaries, and the spread of the English language occurred and occurred for historical and geographical reasons. W.Shakespeare allowed England to become famous for centuries, and forever go down in history, in terms of literature and drama. Some discoveries in the scientific field and technological progress were made by well-known English scientists. Skillful public policy and a strong economy provided access to knowledge and education, thus turning England into a leading cultural, military, industrial and economic country.

Over time, English language only strengthened, and at the beginning of the xx century English became the language of world politics and economy. The cultural heritage andachievements of

the technical revolution of England attracted more scientists, researchers, etc. Support of the government to maintain and expand the scope of the English language is not in vain, strengthening its position, raising it to prestigious and popular.The density and intensity of long-term contacts between representatives of different cultures have increased significantly and continue to increase. The globalization process has brought intercultural communication to a new level. Research in the field of intercultural communication is becoming increasingly important. The main goal is to acquire and improve the skills of intercultural communication between representatives of different cultures.

**References:**

1. Ilyin A.N. Subject in mass culture of modern consumer society: Monograph. - Omsk: Amphora, 2010. - 376 p.

2. carmine A.S., Bernatsky G.G. Philosophy. - SPb.: The publisher DNA 2001-536

# TABIIY FANLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM YONDASHUV

**Kudaybergenova Barno Bayrambayevna**
Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo’ng’irot tumani
33-umumiy o’rta ta’lim maktabining
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang’ich ta’limda yangi fan sifatida bosqichma bosqich joriy qilinayotgan tabiiy fanlarni o’qitishda yangicha yondashuv STEAM yondashuv haqida hamda uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr mulohazalar bildiriladi.
**Kalit so’zlar:** PF-5712-son farmon, AKT, STEAM, STREM,STEAM.

Ta’lim ekspertlari XXI asrga kelib, har bir fan, har bir mavzu natijasida o’quvchida zarur bilim va ko’nikmalarning belgilab berilishini katta yutuq sifatida e’tirof etishmoqda. Buni tushunarli tilda o’quv-o’rganish natijalari deyiladi.

Xo’sh ,avvalgi ta’lim qanday edi? Mavzular bo’yicha aniq, ta’limiy natijalar yo’q,hayot uchun ko’nikmaga ega bo’lmagano’quvchilar yakka tartibda ishlashga majbur edi. O’qituvchi bilimlarni bir-biriga bog’lamasdan yetkazib berish,ma’ruza qilish bilan band edi.Imtixonlar esa o’rganuvchidan fanning hayot bilan bog’lik tomondan emas,yod olishni talab qilar edi.Biroq hozir biz shiddat bilan o’zgarayotgan XXI asrda yashamoqdamiz.Butun dunyo bir-biri bilan doimiy aloqada,qizg’in axborot almashmoqda.Odamlar bir-biri bilan jamoa bo’lib ishlashni ma’qul ko’rmoqdalar.Ta’lim ham bu jarayonlarga moslashdi.So’nggi o’n yillik mobaynida ta’lim tizimi juda katta evolutsiyaga,tadrijiy rivojlanishga yuz tutdi.O’quv dasturlari,ta’limiy muhit,o’qituvchilar,o’qitish usullari,baholash va ta’lim oluvchi, hammasi, har tamonlama o’zgardi. Ta’lim boshqaruvi,yondashuv,ta’lim mazmuni hammasida favqulotda transformatsiya sodir bo’ldi.

An’anaviy ta’limda fanlar bir –biriga bog’lanmasdan ,alohida-alohida o’qitilgani uchun ham, odamlar voqea hodisalarni ayro tasavvur qilmoqdalar.Aslida esa hammasi bir-biriga chambarchas uyg’un.Insonlar dunyoni,hodisalarni,jarayonlarni yaxlit tasavvur qilishlari uchun fanlar ham bir-biriga uyg’un ravishda hamohang o’qitilishi zarur. Aynan mana shu ehtiyoj XXI asrda o’quvchida hayotiy ko’nikmalarni shakllantiruvchi noan’anaviy ta’limning paydo bo’lishiga xizmat qildi. Bugungi kunda butun dunyoda STEM,STREM,STEAM deb nomlanuvchi bunday ta’lim yondashuvi o’quvchida muammoni hal qilish,munozaraga kirishish,tanqidiy fikrlash,jamoa bilan ishlash layoqatlarini shakllantirish bilan o’ziga xosdir.Tabiiy fanlar,texnologiya va muhandislik,tasviriy san’at,matematika,robototexnika bu fanlarning o’quv dasturlari birgalashib hamohanglikda o’zaro STEAM ta’lim yondashuvini tashkil qiladi.E’tiborli jihati shundaki, yuqorida tilga olingan ta’lim yondashuvlari zamonaviy dunyoda eng talabgir tarmoqlarga aylanib bormoqda.STEAM – ta’lim fanlararo va amaliy yondashuvni qo’llash,shuningdek,o’z ichiga olgan 5 ta fanni uyg’unlashtirgan holda bilim berishga asoslangan. STEAM — maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoniga ko‘ra, innovatsion ta’lim jarayoniga o‘tish, zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olish, AKT va ta’lim berishning yangi metodlarini joriy etish, dars jarayonini STEAMta’lim texnologiyasi talablari asosida tashkil etish, STEAM (tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, dizayn va matematika) fanlarini o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslaridan o‘tgan pedagoglar 2023-yilda 10%, 2030-yilga kelib 50%ga yetishi, yangi kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun zarur bilimlar bazasini shakllantirish kabi vazifalar belgilangan.

Maktablarda sinf dars tizimidan loyihaviy faoliyatga tomon o‘tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko‘chirish, ularni amaliyotda faol qo‘llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, muammolar yechimining yangicha yo‘llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo‘naltirish kabi vazifalarni qo‘yadi.




Agar an’anaviy ta’limning asosiy maqsadi bilim berish va bu bilim asosida fikrlash va ijod qilish bo‘lsa, **STEAM** yondashuvida egallangan bilimlarni haqiqiy ko’nikmalar bilan birlashtiriladi. Bu o‘quvchilarga nafaqat bilimga ega bo‘lish, balki, ularni amalda qo‘llash va amalga oshirish imkoniyatin iberadi.

Aslida ishlatilishi mumkin bo’lgan bilimgina haqiqatan qadrlidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risidagi” qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,09.10.2019-y.,06/19/5847/3887-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2019yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori.

3. X. M. Baybaeva “STEAM ta’limi: mazmun-mohiyati, ahamiyati” ma’ruza matni. 2020. T.

# MUSIQA FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

**Norbekova Mushtariybonu**
Jizzax shahar Paxtakor tuman
12-umumiy o’rta ta’lim maktabi
Musiqa fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqa fanlarini tashkil etish zamonaviy metodlardan foydalanish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so’zlar**: O’qituvchi, Pedagogik texnologiya, So`zlash, Ko`rsatish, Mashq

Har qanday fanni, shu jumladan musiqa fanini o’qitish jarayonida ham faollashtiradigan, ularni darsning faol ishtirokchilariga, mustaqil fkirlovchi mushohada qiluvchi o’z fikrlarini bildira oluvchi o’quvchi sifatida namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratuvchi – bu o’qituvchidir. O’qituvchi o’zi va o’rganuvchi o’quvchilar uchun qulay va qiziqarli bo’lgan o’qitish usullari, yo’llari, shakillari, vositalari ulardan foydalanish shart-sharoitlarini belgilaydi, ilg’or pedagogik texnologiyalar yordamida o’quv jarayoni samaradorligini oshirishga harakat qiladi.

Shu boisdan ham pedagogik texnologiya, didaktik texnologiya, ta’lim texnologiyalariga o’quv jarayonidagi eng samarali vositalar sifatida qaralmoqda. Ulardan bugungi kunda jahon pedagogikasi amaliyotida keng foydalanilmoqda.

Pedagogik texnologiya hozirgi kunda eng rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida bo’lgani kabi bizning respubliksmizda ham ta’lim jarayonini tashkil qilish, boshqarish, nazorat qilish bilan bog’liq ishlarda ustuvor o’rini egallamoqda. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalardan barcha pedagoglar yaxshi xabardor bo’lishi, ta’lim jarayonida ularni qo’llab dars o’tishlariga muhim e’tibor berilmoqda. Bu aynan jamiyat taraqqiyotining obyektiv qonuniyatlariga mos bo’lib, jamiyat taraqqiy etishi bilan ta’lim – tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari shunga mos ravishda takomillashib borishi bilan bog’liqdir. Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo`nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to`liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya`ni ta`limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda. Shu tufayli fan sohalarining barchasida bo`lgani kabi musiqiy ta`limda ham yangi texnologiyalarga e`tibor kuchayib bormoqda.

Ta`lim jarayonida o`quvchilar musiqa san`atini butun nafosati bilan o`rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo’lib qo’shiq kuylash, nazariy bilimlarni o’zlashtirish (musiqa savodxonligi) raqsga tushish, bolalar cholg’u asboblarida chalish va musiqa ritmek jo’r bo’lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta’limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qo’llaniladigan va ta’lim-tarbiya jarayonini tadrijiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat bo’lib, ular so’zlash, ko’rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo’lib musiqa darslariga uni tadbiq etilganda quyidagicha ketma-ketlik va bog’liqlikda amal qiladi:

**1. O’qituvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar ketma-keiligi:**

**So`zlash** → **Ko`rsatish** → **Mashq**

Bu jarayon pedagogik texnologik o’zagini tashkil qiladi.

**2. O'quvchi faoliyatidagi asosiy jarayonlar:**

**2-jadval**

| Tinglash → | Ko`rish → | Mashq bajarish |
|---|---|---|
| - musiqa asarini (kuy, qo'shiq) tinglaydi;<br>- mushoxada qildi;<br>- baholaydi;<br>- qiyoslaydi;<br>- taxlil qiladi; | - asarni nota yozuvini ko'radi;<br>- notalar yozilishi, sanog'i, ritm, temp, metr, lad-tonalliklarni asar nota vozuvida | - o'qiydi;<br>- yozadi;<br>- so'zlaydi;<br>- fikrlaydi;<br>- musiqaga mos harakatlar bajaradi;<br>- raqsga tushadi;<br>- bolalar cholg'u asbobolarida chaladi;. |

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari bo`lgan ushbu so`zlash, ko`rsatish va mashqlar bajarishni texnologik jarayonning uch tarkibiy qismi sifatida tahlil qilish mumkin. Musiqa darslari jarayonida ular keng ko`lamli faoliyat sifatida namoyon bo`ladiki bu o`rinda musiqa darslarini faoliyatlar negizida tashkil etilishi bilan bog`liq katta imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida o`qitish haqida turli – tuman fikr, qarash, yondashuvlar mavjud. Bu ham tasodifiy emas albatta. Zamonaviy, ilg`or pedagogik texnologiya asosida o`qitishni yo`lga qo`yish, ta`lim jarayonini o`quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o`qituvchining muhim vazifasi bo`lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ishmuhammedov R, Abduqodirov A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, - Fan, 2008 – yil.
2. Tolipova Sh. Pedagogik texnologiyalar – do`stona muhit yaratish omili. – Toshkent, YUNIREF, RTM, XTB, 2005 – yil.
3. Davletshin M. G. Zamonaviy maktab o`qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent, - O`zbekiston, 1999 – yil.
4. Sharipova G. Musiqa o`qitish metodikasi. TDPU, 2004 – yil.

# GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL TA'LIM VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Matsopoyeva Dinora Qudratovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
26-sonli maktab geografiya fani o'qituvchisi
**Matchanova Farida Erkinbayevna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
12-sonli maktab geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya**: Ushbu maqola geografiya darslarida interfaol ta'lim va uning didaktik imkoniyatlari haqida keng ma'lumot berilgan ushbu maqoladan umumta'lim maktabi o'qituvchilari metodik qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, interfaol metodlar, o'quvchilar va o'qituvchilar, samaradorlik,, savol javoblar, ishtirokchilar, malaka, ko'nikma,interaktiv.

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'l — bu geografiya darslarida mashg'ulotlaming interfaol metodlar yordamida tashkii etish bugungi kun va zamon talabiga aylanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlaming o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlaming o'rinli, maqsadga muvofiq qoilanilishi qanday samaralami kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi. Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha - "interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir. **"Interfaol"** tushunchasi ingliz tilid a "interact"(rus tilida "interaktiv") ifodalanib,- lug'aviy nuqtai nazardan "inter" - o'zaro, ikki taraflama, "act" - harakat qilmoq, ish ko'rm oq kabi m a'nolam i anglatadi. Interfaol ta'lim - ta iim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikm a, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlari o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro ham korlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka ham da muayyan iixloqiy sifatlam i o 'zlashtirish y o'lida birgalikda, ozaro ham korlikka asoslangan harakatni tashkil etish Iayoqatiga egaliklaridir Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng awalo, ijtimoiy sub'ektlaming suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatriing olib borishlarini ifodalaydi. Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxiissis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog) ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi: ' O'qituvchi - o'quvchi *A* An'anaviy ta'limdagi suhbat Ц 0 'qituvchi - o'quvchilar ishtirokchilari guruhi (jamoasi) An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot tuiatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlami og'zaki tarzida o'quvchi (talaba) larga yetkazib berishga intiliidi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, o'quvchi (talaba) lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ulaming asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zl:ishdan iboratdir. An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida einas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "yetkazib beruvchi" rolida endi o'qituvchi emas, balki o'quvchi (talaba) namoyon boradi. O'quvchi (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlami namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. o 'quvchi (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda o'quvchi (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlaming qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlami o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'Iumot)lar juda tez unutiladi.Xususan,amerikalikpsixolog olimlar R.Kamikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlami turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10 %; ma'lumotni eshitganida 20 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30 %; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlami eshitganida 50 %; ma'lumot (axborot)lami o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)lami o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi

ma’lumotlami yodda saqlash imkoniyatiga ega. Shunga ko'ra interfaol o'qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilar

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


- Geografiya o’qitish metodikasi H.Vaxobov, N.R Alimqulov, N.B. Sultanov Toshkent 2020
- Interfaol metodlar qo’llanma Toshkent 2017
- www.ziyoz.com kutubxonasi

# MAKTABLARDA GEOGRAFIYA DARSLARINI O'QITISH BO'YICHA TAVSIYALAR

**Madaminova Raxima Maksudovna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
4-son maktabning geografiya fani o'qituvchisi

**Allaberganova Nafosat Zaripoyevna**
Xorazm viloyati Urganch shahar
18-son maktabning geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:**Ushbu tavsiyada geografiya darslarini o'qitish bo'yicha tavsiyalar yoritilgan bo'lib, geografiya darslarida qo'llash tavsiya etiladi.
**Kalit so'zlar:** geografiya, dars, metod, innovatsion, o'quvchi, tadqiqot, usul.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalda tadbiq etishning so'nggi bosqichida sifat va samaradorlik ko'rsatgichlari ta'lim va tarbiyaviy jarayonining asosini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Bu borada bajarilayotgan ishlarning negizida yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosiy vazifa sifatida belgilangan. Shu maqsadda ta'lim tizimida milliy dasturni amalga oshirishning asosiy talablari mavjud o'quv rejalar, dastur, darslik, o'quv qo'llanma va metodik ishlanmalarni fanning so'nggi yutuqlari, malakali pedagoglar tomonidan beriladigan tavsiyalar va ishlanmalar bilan o'zgartirilib, boyitilib borishiga qaratilgan.

Quyida sizga geografiya darslarini o'qitish bo'yicha usullarini taqdim etishni joiz topdim.

**"Eng, eng, eng..." usuli.** Bunda dunyodagi eng maqomini olgan savollarga javob topiladi.




**Vatikan**

**"Uch bosqichli intervyu" metodi**. Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'linadi: **pedagog – o'quvchi - ekspert.**

Har bir guruh shu rollarni egallaydi. "Pedagog" guruhi mavzu bo'yicha savol va topshiriqlar berishi, "o'quvchi" guruhi javob berishi, "Ekspert" guruhi ularni baholashi zarur.

Ekspert 3 bo'limga bo'lib baholaydi:

- Nimalar to'g'ri qilindi?
- Nimalar noto'g'ri qilindi?
- Qanday qilish kerak edi?

Bu metod o'quvchilarga so'rab-surishtirish, pedagogik muloqot olib borish, bilim va malakalarni tekshirish va baholashni o'rgatadi.

**«Aylana» usuli. Bunda** ishtirok qiluvchilar doira shaklida turadilar. Usul quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o'quvchi «Toshkent» desa, undan o'ngda turgan o'quvchi shaharning oxirgi harfi ya'ni «t» harfi bilan boshlanuvchi O'zbekistondagi boshqa bir shaharni aytadi. Masalan: Toshkent – Termiz – Zarafshon yoki Katta Qo'rg'on – Namangan va hokazo. Qaysi o'quvchi 5-10

sekund davomida shahar yoki joy nomini ayta olmay to'xtalib qolsa u chiqqan sanaladi. Ushbu usul bitta o'quvchi qolguncha davom ettriladi, eng oxirida qolgan o'quvchi g'alaba qilgan hisoblanadi.

«**Geografik karta bo'yicha xayoliy sayohat» usuli.** Sinf bir necha guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga karta bo'yicha o'tkaziladigan «xayoliy sayohat» marshruti belgilab beriladi. Har bir guruh turli adabiyotlardan foydalangan holda, karta bo'yicha qilingan «xayoliy sayohat» marshrutida uchragan ob'yektlarga qisqacha tavsif yozadi. **«Sayohatlar»** ma'lum bosqichlar bo'yicha ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, agar shu hafta ichida guruh a’zolari qoniqarli baho olishsa va tartib-intizomni buzishmasa o'z marshrutlari bo'yicha «sayohatni» davom ettirishlariga ruxsat beriladi. «Sayohatni» turli «transport» turlaridan foydalanib o'tkazilishi mumkin. Har chorak oxirida «sayohatlar»ning «hisobotlari» tahlil qilinib, o'yin davomida sayohatni o'z vaqtida tugatgan va «hisobotlari» yuqori baholangan guruh g'olib bo'ladi.

**“Tadqiqotchi” usuli:** Bunda o‘quvchilar darslarda o‘rgangan bilimlarini aniq dalillar asosida javob beradilar va tadqiq qiladilar.Bunda o‘qituvchi tomonidan oldindan fanga oid qiziqarli ma’lumotlardan iborat savollar tayyorlab qo‘yilishi kerak. **Masalan:** 1.Barcha tomoni janubga qaratilgan uyni yer yuzasining qaysi qismida ko‘rish mumkin? **Javob:** Faqat shimoliy kutbda.

2.Suzib ketayotgan kemaning o‘rni faqat geografik kenglik bo‘yicha o‘zgarib, uzunligi o‘zgarmasa, u qaysi yo‘nalishda ketayotgan bo‘ladi?

**Javob:** Shimoldan janubga yoki aksincha.

**“Xira oyna” usuli.** O‘quvchilarga “Xira oyna” tarqatmalari tarqatiladi. Ular matn yoki bayon yozish davomida tushunmagan va bilmoqchi bo‘lgan ma’lumotlarini tarqatmaning xira tomoniga, oynaning tiniq tomoniga tushungan va bilgan ma’lumotlarini yozib beradilar.

Bobokalonimiz Abu Rayhon Beruniy o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtirish muhim vazifa ekanligini uqtirib, “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida “Maqsad gapni cho‘zish emas, balki o‘quvchini zeriktirmaslik, chunki doimo bir xil narsaga qarayverish malollik va sabrsizlikka olib keladi.

n**O‘quvchi** fandan-fanga o‘tib tursa, turli bog‘larda yurganga o‘xshaydi. Birini ko‘rib ulgurmasdan boshqasi boshlanadi va kishi har bir narsada o‘ziga yarasha lazzat bor deyilganidek ularni ko‘rishga qiziqadi, ko‘zdan kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keladi”, - degan edi. Buyuk bobokalonimiz ta’kidlaganidek, bir xillikdan qochib, xotiraga malol kelmaydigan usullardan foydalanib tashkil etilgan dars esa o‘quvchilar xotirasida abadiy saqlanib qoladi, albatta.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rafiqov A. A. Amaliy geografiya. –T.: — Sharq, 2007-yil
2. Tojiboeva D. va boshq. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi.

# BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARDA ZAMONAVIY METODLARINI QO’LLASHNING AHAMIYATI

**Radjapova Raziyajon Marimovna**
Urganch shahar 28-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (91) 428 84 74
raziyajon.marimovna_28@inbox.uz
**Xaydarova Nargiza Shonazarov**
Urganch shahar 28-son maktab o’qituvchisi
Telefon: + 998 (99) 575 22 18
xaydarova.nargiza_28@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola boshlang‘ich sinf darslarida zamonaviy metodlarni qo’llashning ahamiyati haqida.
***Kalit so‘zlar:*** Zamonaviy metodlar, innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar.

Maktab o‘quvchilari uchun samarali o‘qitish strategiyalari. O‘qituvchilar sinfga birinchi marta kirishadimi yoki ular sinf rahbarlari bo‘ladimi, o‘qituvchilar har doim o‘quvchilarning o‘quv tajribasini yaxshilashning yangi usullarini izlaydilar. Xulq-atvor muammolarini hal qilishdan tortib, mavjud dars rejalarini takomillashtirishga qadar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishning ba’zi samarali strategiyalari.

Kichik qadam qo‘yish va savol berish. Bu samarali o‘qituvchi bo‘lish uchun bolalarni o‘rganish va o‘qitishga bo‘lgan muhabbatdan ko‘proq narsani talab qiladi. O‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning o‘rganish salohiyatini oshirish uchun ishtiyoq va fidoyilik bilan bir qatorda aniq ko‘nikmalar va tasdiqlangan sinf amaliyoti bilan tanishish ham zarur. O‘qituvchilar yangi strategiya va o‘qitish usullarini o‘rganishga ko‘maklashishi va bolalarning bilimga bo‘lgan tabiiy chanqog‘ini faol ravishda rag‘batlantirishi mumkin.

Samarali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ta’siri bolada butun hayoti davomida qolishi mumkin. Maktabning malakali o‘qituvchilari ko‘pincha o‘quvchilarining umuman ta’lim tizimiga bo‘lgan nuqtai nazaridan umidvor bo‘lishadi. Aynan shu narsa samarali o‘qitish strategiyasi hozirgi yoshda juda muhimdir. Yoshlik davrida o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish ularning ta’lim rivojlanishining muhim qismidir. O‘qishni nafaqat qiziqarli, balki jozibali va esda qolarli qila oladigan o‘qituvchi o‘quvchining ongida ta’limning ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Buyuk o‘qituvchilar kichik qadamlar bilan materialni esda qolarli qilishga yordam berishadi. Ma’lumki, biz eng ko‘p ma’lumotni qayta ishlaydigan miyamizdagi joy juda oz. Bir vaqtning o‘zida bizdan juda ko‘p narsalarni o‘rganishimiz so‘ralganda, biz hayratga tushishimiz mumkin. Bolaning rivojlanayotgan xotirasi uchun “chunki” deb nomlangan o‘qitish strategiyasi eng samarali ekanligi isbotlandi. Chunki - bu yo‘lda tushunishni tekshirish paytida kichik bosqichlarda o‘qitishni anglatadi. O‘quvchilar bilan ko‘p savollar berib javobini tasdiqlash maqsadida chunki deb isbot qilishlari oqibatida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin.

Bolalarning ijtimoiy munosabatlari boshlang‘ich ta’lim davomida juda muhimdir. Ushbu yoshda bolalar ko‘proq do‘stona munosabatlarni o‘rnatadilar va guruhlarda ishlashni o‘rganadilar. Ko‘pincha o‘qituvchilar umumiy qiziqish va qobiliyatlarga qarab guruhlarni tanlaydilar. Ammo bolalar uchun o‘zlarini o‘quvchi sifatida tushunishni rivojlantirish va o‘zlarining fikrlashlari to‘g‘risida xabardorligini oshirishi muhimdir, bu jarayonni psixologlar metakognitatsiya deb atashadi.

Bolalar o‘zlariga mos kelishni xohlashadi va har doim sinfga aralashishning eng yaxshi usuli nima ekanligiga ishonchlari komil bo‘lmaydi. Ya’ni o‘quvchilarning ba’zilari ham tortinchoq ham kamgap bo‘lishadi. Buning oldini olish maqsadida o‘quvchilarni birini kamgap ikkinchisini esa aksincha bo‘lganini o‘tqazish zarur. Shunda o‘quvchilarga qo‘shilolmagan o‘quvchi ham qo‘shilishga harakat qiladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak har bir o‘quvchi ustida ishlashga harakat qilish eng samarali usullardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Matnazarova K. O‘qitishning faol metodlari, Boshlang‘ich ta’lim 2009.

# TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI

**Reyimova Barno Sadullayevna**
Xorazm viloyati Xonqa tumani
3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi nemis tili o‘qituvchisi
**Adamova Zamira Rustamovna**
Xorazm viloyati Xonqa tumani
3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi
**Jo‘raboyeva Dilfuza Umrbek qizi**
Xorazm viloyati Xonqa tumani
3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’lim tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarning roli, o’quvchi va o’qituvchining axborot texnologiyalari orqali o’zaro samarali muloqotga kirishishi haqida so’z yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** axborot, kompyuter, masofaviy kurs, mustaqil ta’lim, kasbiy mahorat, internet, interfaol.

O’quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o’qituvchilar mehnat faoliyatining o’zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarining takomillashuviga olib keladi. Bu esa o’z navbatida pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishga o’ziga xos vazifalarni qo’yadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o’qituvchining pedagogik faoliyatida:

– ta’limning texnologik asosini zamon talablari darajasida rivojlantirish bilan bog’liq bo’lgan murakkab jarayon yengillashadi;

– dars jarayonini zamonaviy texnik vositalar asosida tashkil etish uchun maxsus ko’nikma va malakalar shakllantiriladi;

– masofaviy kurslarning ochiqligi tufayli ularning sifatiga bo’lgan talablar va o’quv materialining sifatini nazorat qilishga ehtiyoj paydo bo’ladi;

– ta’lim jarayonida o’quvchilarning mustaqil faoliyati takomillashadi, dars jarayonining samaradorligi o’qituvchidan o’quvchiga ko’chadi;

– o’quv jarayonini tashkil etishda o’quvchining tashkilotchiligi va shaxsiy ishtiroki ortadi.

Hozirgi kunda jamiyatning har bir a’zosi, o’zining kundalik faoliyatida uzluksiz ravishda turli axborot resurslaridan foydalanadi. Doimiy ravishda ortib borayotgan axborotlar hajmi jamiyatdagi intellektual salohiyatning oshishiga xizmat qiladi. Zamon talabi shunday ekan, o’qituvchi ham o’z kasbiy va pedagogik mahoratini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida oshirib borish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalari o’z muhitida axborot ob’yektlarini ularning o’zaro aloqasini, axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash, to’plash texnologiyalari va vositalarini, shuningdek axborot jarayonlarining tashkiliy va huquqiy tarkibini mujassamlantiradi.

Kompyuter texnologiyalaridan foydalanishda o’qituvchi uning mazmuniga ko’ra bir qancha vazifalarni bajarishi mumkin. Ular quyidagi asosiy didaktik funksiyalarni bajaradi:

a) multimedia texnologiyalarini qo’llash evaziga o’quvchilarda fanlarga qiziqishni rivojlantiradi;

b) bunda ta’limning interfaolligi tufayli o’quvchilarning fikrlash qobiliyatlari faollashadi va o’quv materialini o’zlashtirish samaradorligi oshadi;

c) real holatlardan namoyish qilinishi yoki murakkab jarayonlarni modellashtirish va ko’rish imkoniyatini berish bilan muhim ahamiyatga ega;

d) masofadan turib ta’lim olish: bunda faqat o’zlashtiruvchi o’quvchilar uchun yoki internet ta’limi uchun tashkil etilmaydi. Balki sababsiz dars qoldirgan o’quvchilar uchun ham tashkil etish imkoniyatini beradi;

e) o’quvchilarga mustaqil izlashi uchun materiallarni topish hamda muammoli masalalarga javob berish orqali ma’lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratadi;

f) o’quvchilarning yangi mavzuni o’zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o’quv materiallari bilan mustaqil tanishish, axborot va ma’lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratadi.

Kompyuter yordamida turli ilmiy axborotlar, o’quv materiallari, o’quv materiallari bo’yicha axborotlarni tavsiya etishning boy imkoniyatlari, xususan ularga integrativ kurslarni kiritish, fanning tarixi va metodologiyasi bilan tanishish, turli fanlar bo’yicha ularning zamonaviy darajasiga oid bilimlar ta’lim mazmunini sezilarli o’zgartirish va keskin boyitishga yordam beradi. Uni faollashtirish va rivojlantirishda muhim omil bo’ladi.

Kompyuterli o’qitish metodikasining boshqa bir muhim xususiyati u o’qitish jarayonining barcha bosqichlarida yangi o’quv materialini tushuntirishda, qaytarishda, umumlashtirishda, o’quvchilarning fan bo’yicha erishgan bilim, malaka va ko’nikmalarini tekshirishda yanada yorqinroq namoyon bo’ladi. Bunday jarayonda o’qituvchi kompyuterning o’quvchi uchun turli vazifalarni, xususan o’qituvchilik, ishchi qurol, ta’lim ob’yekti o’zaro muloqot kabi funksiyalarini bajarishni bilishi kerak. Bunda o’qituvchining vazifasi dars jarayonida o’quvchilarni kompyuterdan to’g’ri foydalanishlarini nazorat qilishdan iborat.

Kompyuter texnologiyalari asosida o’qituvchi o’zining kasbiy mahoratini oshirish uchun mustaqil faoliyatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.O’quv jarayonini bir butun guruh sifatida tashkil etish.

2.O’quv jarayonida guruhlarni faollashtirish va muvofiqlashtirish, ish joylarini taqsimlash, ko’rsatmalar berish.

3.O’quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko’rsatish, har bir o’quvchi bilan individual muloqot olib borish.

4.Axborot muhitini tashkil etuvchilari (shaxsiy kompyuter, o’quv va namoyish qurilmalarning har xil turlari, dasturiy vositalar va tizimlar, o’quv metodik ko’rsatmalar va h.k.) ma’lum o’quv kursining mazmuni bilan aniqlangan bog’liqlik asosida tashkil etish.

Kompyuter texnologiyasi asosida mustaqil ta’limni ta’minlashda o’qituvchilar quyidagi tuzilmalar to’g’risida ma’lumotga ega bo’lishlari kerak:

− informatika va hisoblash texnikasining asosiy tushunchalarini bilishi;
− kompyuter texnikasining funksional imkoniyatalarini bilishi;
− zamonaviy operatsion tizimlarni bilishi va ularning asosiy buyruqlarini o’zlashtirishi;
− zamonaviy dasturiy vositalar va operatsion tuzilmalarni bilishi va ularning vazifalarini o’zlashtirishi;
− kamida bitta matn muharriri bilan tanish bo’lishi;
− algoritmlar, tillar va dasturlashtirish haqida dastalabki tushunchalarga ega bo’lishi;
− amaliy dasturlashdan foydalanish to’g’risida dastlabki tajribaga ega bo’lishi va h.k.

Ta’limni jadallashtirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish o’quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Buni quyidagi misollarda ko’rish mumkin:

- o’qituvchilar, ilmiy xodimlar jahonning salmoqli ilmiy, metodik adabiyotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladilar;
- uzoq masofalarda joylashgan yetakchi ta’lim muassasalarining ilmiy anjumanlari, seminar va labaratoriyalari bilan tanishadilar;
− turli mavzularda videokonferensiyalar tashkil qilish va amalga oshirishga erishadilar;
− oqituvchilarning o’zaro trening va seminarlari o’tkaziladi;
− masofaviy ta’lim, axborotlar almashinish va shunga o’xshash juda ko’p imkoniyatlarga ega bo’ladilar.

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalarni ta’lim muassasalarida amalda tadbiq etish o’quv jarayonida zamonaviy o’qitish metodlarini qo’llashda hamda o’qituvchi pedagogik mahoratini namoyish etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.Saidahmedov Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo’llash namunalari.
2. Sh.Tojiyeva. Zamonaviy o’qitish usullari.
3. A.Kenjabayev. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari.
4. www.orbita.uz
5. http://akt.uzedu.uz
6. http://masofa.uz

# BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH JARAYONIDA KO‘RGAZMALILIKNING AHAMIYATI

**Sabirova Dilnavoz Safayevna**
Urganch shahar 1-son maktab o‘qituvchisi
Telefon: +998 (93) 740 31 51
sabirova.dilnavoz_3151@inbox.uz
**Masharipova Galina Remirovna**
Urganch shahar 28-son maktab o’qituvchisi
Telefon: + 998 (90) 738 24 34
galina.remirovna_28scool@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish jarayonida ko‘rgazmalilikning ahamiyati haqida.
***Kalit so‘zlar:*** Eshitish, ko‘rgazmalilik, o‘quvchi, o‘zlashtirish, idrok etmoq.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ustoz va murabbiylarga: “Biz xalqimizning eng katta boyligini - millionlab farzandlarimiz, jondan aziz o‘g‘il-qizlarimizning taqdirini, O‘zbekiston istiqbolini sizlarga ishonib topshirganmiz va bu vazifani mas’uliyat bilan ado etib kelayotgan sizlar kabi fidoyi insonlar, kelajak bunyodkorlariga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.” degan edilar.

Yurtboshimizning ushbu fikrlarida jamiyatimizda o‘qituvchilik kasbiga alohida e’tibor qaratilayotganining yorqin isbotidir. Shuni aloxida aytish mumkinki, ta’limning o‘zi borliqning ko‘rgazmali tasviridan iborat. Ammo boshlang‘ich sinf darslarida san’atning boshqa turlari: Texnika vositalaridan kompyuter, ideoproektor, kino, televideniya, musiqa, tasviriy san’at ham yordamga kelishi mumkin. Bular boshlang‘ich ta’lim jarayoniga qo‘shimcha axborot manbasi bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilarda estetik tuyg‘ularning shakllaniishi va rivojiga imkon beradi.

Hozirgi paytda turli kinoapparatlar, televizor, epidiaskop, kompyutep va.b. har bir maktabda ham, har bir xonadonda ham deyarli mavjud. Bularnnng hisobiga ko‘rgazmali qurollar doirasi yanada kengayadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, ko‘rgazmalilikdan darsda va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish, bir-biridan o‘z xarakteriga ko‘ra jiddiy farq qiladi hamda boshqa-boshqa maqsadlarni ko‘zda tutadi. To‘garak ishlarda, fakultativ mashg‘ulotlarda olib borish mumkin. Darsda esa ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning aksari o‘zlashtirishiga yordam bera oladigan darajadagina qo‘llanishi mumkin. Aks holda u birinchi rejaga chiqib, asosiy mavzu orqa rejada qolishi mumkin.

Ko‘rgazmalilikdan foydalangandagina darslarda shartli ravishda o‘quvchining passiv yoki faol ishtiroki haqida gapirish mumkin. Agar ko‘rgazmali qurol o‘quvchi faolligini ijobiy ta’sir ko‘rsatmasa, undan foydalanmagan ma’qul. Demak, ko‘rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo‘lishi mumkin. Hozirgi paytda ko‘rgazmalilikning turlari nihoyatda xilma-xildir: illyustrativ-badiiy hamda grafik (chizma) materiallar, gramofon yozuvi va radioeshittirishlar, kinofilm va o‘quv filmlar, televizion darslar, slaydlar v.h.

Ularning har biri ko‘rish, eshitish, sintetik shakldosh ko‘rgazmalilikka tegishli bo‘lishi mumkin. Ayniqsa ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rgazmalilikning ahamiyati kattadir. Bunga turli portretlari, illyustrastiyalar, yozuvchi (adib) hayoti va ijodiga aloqador bo‘lgan joylar fotografiyasi, yoki fotosuratlar, v.b. kirishi mumkin. Har holda eng kamida darslik va darslik majmualardagi rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Otkritka ko‘rinishidagi rasmlardan tarqatma material sifatida foylalanish mumkin. Uning qulayligi shundaki, bu holda har bir o‘quvchining qobiliyati va imkoniyatini ham nazarda tutish mumkin bo‘ladi.

Tinglash bilan aloqador ko‘rgazmalilik ham alohida mavqega ega. Kitoblardagi she’rlarni, xususan she’riy asarlarni to‘liq tushunish va hazm qilish uchun adib yaratgan tovushni obrazlarni eshitish, his qilish va baholash ham nihoyatda beqiyos ahamiyatga molik. Adiblar aytgan she’riy disklarning darslardagi zaruriyati ba’zan nihoyatda ochiq seziladi. O‘quvchilarni kitob o‘qishga qiziqtirishda ko‘rgazmali qurollar muhim didaktik vosita sanaladi.

Agar ko‘rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o‘ylab ko‘rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Boshlang‘ich sinf darslaridagi ko‘rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Yana

bir muhim holat shundaki, ko‘rgazmali qurollarni yaratishga o‘quvchilarning o‘zlarini jalb etish ham muhimdir. Bunda faqat nusxa ko‘chirish emas, balki jiddiy ijodiy mehnatni talab qiladigan ko‘rgazmalar yasash, o‘quvchining umumiy badiiy estetik tayyorgarligiga ham jiddiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1.Abduqudusov O. “O‘quv muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari “-T.,” O‘qituvchi” 2017

2.R.Safarova, M.G‘Ulomov, M.Inoyatova Savod o‘rgatish darslari. «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2012

# BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI INTEGRATSIYALASHDAGI AFZALLIKLARI

**Tajibayeva Karomat Erkinovna**
Shovot tumani 42-son maktab o'qituvchisi
Telefon: +998 (91) 912 18 72
tajibayeva.karomat_42@inbox.uz
**Matyaqubova Ro'za Raximboyevna**
Urganch shahar 1-son maktab o'qituvchisi
Telefon: + 998 (99) 968 85 12
matyaqubovaroza_1scool@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda darslarni integratsiyalashdagi afzalliklari haqida so'z yuritilgan hamda itegratsion tarzda darslarni tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.
***Kalit so'zlar:*** Integratsiya, slayd shou, videolavhalar, animatsiyalar, videoroliklar.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar juda faol bo'ladi.Ularni fikrini jamlash va tinchlantirib turish,o'tiladigan mavzular mohiyatini tasavvurida shakllantirish qiyin kechadi. Huddi shunday jarayonlarda mavzuni tushuntirishda o'qituvchilarimiz biroz qiyinchilikka duch kelishadi. Shunday jarayon asosan o'qish yoki odobnoma,tabiat fanlari yani ko'proq og'zaki tushuntirishlardan iborat fanlar sirasiga kiradi. Bunday vaziyatlarda aksariyat o'quvchilar sinfdagi faolligiga qarab muloqotchanlari darsga e'tiborli bo'lishadi.Lekin shu sinfdagi fikrini to'laligicha bayon eta olmaydigan, uyatchan va xayolparast o'quvchilar biroz qiynaladi.Huddi shunday jarayonlarda darslarni integratsiyalash juda qo'l keladi.

Darslarni integratsiyalash – bu ish reja asosida mazmunan bir-biriga mos mavzularni birlashtirishdir.Masalan 2-sinf misolida oladigan bo'lsak o'qish fanidan "Kuz fasli"mavzusi bilan tasviriy san'atdagi "Kuz keldi » mavzusida rasm ishlash mavzusini, o'qish fanidan "Qish»mavzusiga' tasviriy san'atdagi «Qish manzarasi»mavzusida rasm ishlash mavzularini integrasiyalashtirib dars o'tishni yo'lga qo'ysak o'quvchilar bir paytda ham eshitadi, ham chizadi va tasavvur qiladi.Oquvchila'rdagi juda ko'p qirralarni kashf etgan bo'lamiz. Bunday bir-biriga mos mavzularni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Olimlar kishi o'ylab yozayotganda miyaning bir necha qismi faollashishi va shu paytda fikrni jamlash qobilyati kamida uch barobar ortishini takidlaydi.Surat chizayotganda o'quvchining asabi tinchlanib, fikrlash salohiyati to'liq ishga tushadi.

Pedagoglarning farzandingizni bolalikdan rasm chizishga qiziqtiring,deya takidlashi bejiz emas. Balki bola buyuk musavvir bo'la olmas .Muhimi eshitgan mavzularni to'laligicha tasavvur qilib,uning intellectual qobilyati rivojlanib boraveradi.

Har birimiz o'quvchilarimizni behad yaxshi ko'ramiz ,ularni qobilyatli bo'lib ulg'ayishi uchun yelib-yuguramiz. Faqat o'quvchining intelektual salohiyatini rivojlantirish masalasiga kelganda negadir aksariyat ustozlarimiz biroz e'tiborni susaytiramiz. Vaholanki shu boshlang'ich sinflardayoq o'quvchilardagi ko'pgina qobilyatlarni rivojlantirish imkoniyatini boy beramiz.

Qolaversa, qalbida san'atning biror turiga mehr uyg'ongan o'g'il-qizlar tabiatan hushchaqchaq bo'ladi. Bola o'z fikr hayollarini qog'ozga tushirar ekan,o'zi sezmagan holda fe'l-atvorin va psihofiziologik holati haqida ham xabar beradi.Shu bois psixologlarimiz rasmlardagi rang va tasvirni tahlil qilish orqali turli izohlarni keltirishadi.

Darslarni integratsiyalash o'quvchilarda kuzatuvchanlik qobilyatini , o'tilgan mavzudagi jarayon va qahramonlar qanday ko'rinishdaligi va ular bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi. O'quvchilar biror manzarani tasvirlash chog'ida ko'z o'ngida go'zallik olamini yaratishga, o'zini qurshab turgan hamma narsani chiroyli tasvirlashga intiladi.Bu esa ularni iqtidori shakllanishi va tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adbiyotlar ro'yhati:**

1.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003.
2.Jumaev M.E.Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. – T.: 2004

# O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA ULARDA ILGARI SURILGAN YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRUVCHI G'OYALAR

**Turdioxunova Muhayyo Furqatovna**
Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
24-IDUMning hind tili fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi rivojlanish bosqichlari, bolalar ma'naviyatini yuksaltirishga qo'shayotgan hissasi haqida fikr bildirib o'tilgan.
**Kalit so'zlar:** Badiiy adabiyot, asar, davr, janr, she'r, namuna, tilshunos.

Bugungi o'zbek bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. O'tgan asrning 30-yillarga kelib, o'zining professional shoir va yozuvchilariga ega bo'ldi. Poeziya (Zafar Diyor, Adham Rahmat, Ilyos Muslim, Shukur Sa'dulla, Sulton Jo'ra, Mahmuda Oqilova, Quddus Muhammadiy), proza (Majid Fayziy, Dorjiya Oppoqova, Hakim Nazir), dramaturgiya (Zafar Diyor, Dorjiya Oppoqova) sohalarida bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar. Sadriddin Ayniy, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Shokir Sulaymon, Elbek va G'ayratiylar ham o'zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishiga o'z hissalarini qo'shdilar.

Bu davrda Zafar Diyorning «Qo'shiqlar» (1933), «Tantana» (1936), «She'rlar» (1939), «Muborak» (1940), «SHe'r va hikoyalar» (1940) to'plamlari va «Mashinist» (1935) poemasi, «Baxtli yoshlik» dramasi, «Jo'natish», «Nojo'yaliklar» hikoyalari; A. Rahmatning «Dum» (1938), «Baxtli yoshlik» (1939), «Zavqli allalar» (1940), «She'rlar» (1940), «Hiylagar tulki» (1940) kitoblari; Sulton Jo'raning «Fidokor» (1940); Ilyos Muslimning „O suv» (1932), «Zaharxandalar» (1932) to'plamlari, «Miqti keldi» poemasi (1934); Shukur Sa'dullaning «Hayqiriq» (1933) to'plamlari bosilib chiqdi.

Bu davrda qardosh xalqlar adabiyotidan juda ko'plab asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Buning natijasida o'zbek bolalar adabiyoti har tomonlama boyib bordi. Ayniqsa, «Yosh turkistonliklar», «Bolalar yo'ldoshi», «Bolalar dunyosi», „O'zgaruvchi bolalar», «Yosh kuch» kabi nashrlarning yo'lga qo'yilishi bolalar adabiyotining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Xullas, bolalar adabiyotining mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona yurt tabiati, xalqlar do'stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o'rin oldi.

Xalqimizda «Ona yurting omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas», degan naql bor. Ikkinchi jahon urushi yillarida Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Sobir Abdulla, Uyg'un, Maqsud Shayxzoda, Zafar Diyor, Amin Umariy, G'ayratiy, Mirtemir, Ilyos Muslim, Sulton Jo'ra va boshqalar fashist bosqinchilarining yer bilan yakson bo'lishiga komil ishonch g'oyasi bilan yo'g'rilgan asarlar yaratdilar. Uyg'unning «Xayrlashuv», Zafar Diyorning «Kichkina jangchi», Ilyos Muslimning «Yovni tutday to'kamiz», Sulton Jo'raning «Tekstil kombinati to'quvchilari», Ra'no Uzoqovaning «Talpin, yurak» she'rlari bolalar adabiyotida urushni la'natlovchi dastlabki asarlardan bo'ldi.

Bu davr bolalar adabiyotining asosiy mavzusini urush davridagi xalq qahramonlarining fashist bosqinchilariga qarshi jasoratlarga to'la kurashi «Xat» (Hamid Olimjon), «Sen yetim emassan» (G'afur G'ulom), «Vatan haqida», «Yigitlarga» (Oybek), «Kurash nechun?», «Kapitan Gastello» (Maqsud Shayxzoda), «Vatan haqida qo'shiq» (Uyg'un), «Vatan», «Chavandoz» (Temir Fattoh), «Qurol bering menga ham!», «Bizning oila» (Zafar Diyor), «To'pchi Muhammad» (Sulton Jo'ra), «Onamning aytganlari» (Adham Rahmat), «Biz yengamiz» (Hasan Said) kabi asarlarda o'z ifodasini topdi.

Urushdan so'nggi davr bolalar she'riyatida ona-Vatan, go'zal diyor, hur o'lkamiz to'g'risida yaratilgan asarlar diqqatga sazovordir. «Yashna, Vatan» (I. Muslim), «Obod o'lkam», «Yurtimizning yuragi» (P. Mo'min), «Mening Vatanim», «Baxtli bolalar» (Q. Hikmat), «O'lkamizning tongi otmoqda» (A. Rahmat), «Dehqon bobo va o'n ikki bolakay qissasi» (A. Oripov), «Ona degan so'z» (O. Matjon) kabi bu mavzuda yaratilgan she'rlarni sanagan bilan tamom bo'lmaydi. Abdulla Oripovning «Dehqon bobo va o'n ikki bolakay qissasi» she'ri bolalar adabiyotining keyingi yillarda qo'lga kiritgan jiddiy yutuqlaridan bo'ldi. O'zbek bolalar she'riyatida O'zbekiston haqida ko'plab asarlar bor. A. Oripov ularni takrorlamasdan o'ziga xos original asar yozgan. She'r qahramonlari

o’n ikki viloyatdan chiqqan a‘lochi, jamoatchi o’quvchi bolalar. Ular o’z joylarining tarixini yaxshi bilishadi. Poezdda o’zlariga hamroh bo’lgan boboning savollariga lo’nda- lo’nda qilib javob berishadi. O’zbekistondagi har bir viloyatning o’ziga xos boyligi, shaharlari, bag’rikeng odamlari kitobxon ko’z o’ngida bir-bir gavdalanadi. O’zaro suhbat asosiga qurilgan bu she‘rda boboning yakuniy nutqi juda salmoqli. To’rt misra she‘r bilan tobora gullab-yashnab borayotgan, o’z taqdirini o’zi bunyod etayotgan diyorimizning husni jamoli, salobati va qudrati bir butunligicha ifoda etilgan:

O’zbek xalqi avvaldan mehnatkash xalq. Ishchanlik bizga ota-bobolarimizdan meros bo’lib qolgan. Q. Muhammadiyning «Etik», «Buvimning hikoyasi», H. Yoqubovning «Sirdaryo oftobi», Shukur Sa‘dullaning «Hovlimizning bolalari», «Dastyor qiz», «Bog’bon qiz», Ilyos Muslimning «Oyxon va rayhon», «Ishchan asalarilar», «Sening sovg’ang», Po’lat Mo’minning «Dalalarga qarasam», «Oftob chiqdi olamga», Qudrat Hikmatning «Bobo va nabira», «Jo’jam, yurma laqillab», Tolib Yo’ldoshning «Vaqt qadri», Yusuf Shomansurning «Baraka», «Tikuvchi» she‘rlari bevosita mehnat mavzusiga bag’ishlangan.

Shoirlarimiz o’z asarlarida bolalarni mehnatkash bo’lishga, mehnat ahlini hurmat qilishga, ularning peshona terlari evaziga bunyod etilgan narsalarni e‘zozlashga, asrab-avaylashga da‘vat qiluvchi she‘rlari bilan kitobxon mehrini qozonmoqdalar.

Bolalarni bog’cha yoshidan boshlaboq tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bolalar ijodkorlari bu masalaga alohida e‘tibor bermoqdalar. «Kichkina bog’bon haqida doston», «Suv bilan suhbat», «Yuksak tog, keng o’tloq va mard o’rtoq haqida qissa» (Z. Diyor), «To’rt fasl» (SH. Sa‘dulla), «Bizning bog’ga kelinglar» (G’. G’ulom), «Boychechak», «G’uncha» (Uyg’un), «O’rik gullaganda» (H.Olimjon), «Yurtimiz tabiati», «Tilla qo’ng’iz» (I. Muslim), «Tabiat alifbosi», «Qanotli do’stlar» (Q. Muhammadiy), «Bahor», «Tog’ manzarasi», «Suv» (Q. Hikmat), «Toshbaqa» (Y. SHomansur), «Bircho’ntak yong’oq» (M.A‘zam), «Kamalak afsonasi» (O. Matjon) va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin o’tgan davr ichida o’nlab poemalar, ertaklar, dostonlar maydonga keldi. Oybekning «Zafar va Zahro», «Bobom»; Quddus Muhammadiyning «Dunyoda eng kuchli nima?», «Solijon»; SHukur Sa‘dullaning «Laqma it», «Ikki donishmand»; Po’lat Mo’minning «O’rinbosarlar», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyron velosipedi», «Oltin nay», «Jalil eshitgan ertak»; Qudrat Hikmatning «Toshbaqalar hujumi», «Bobo dehqon hangomasi», «Chovkar», «Chirchiq farzandi»; Ramz Bobojonning «Cho’pon o’g’li»; Safar Barnoevning «Biz dehqon bolasimiz», «Oltin shahar haqida afsona», «Oltin oshiqlar»; Miraziz A‘zamning «Aqlli bolalar», «Bedananing buvisi»; Toshpo’lat Hamidning «Asrorqulning qo’chqori»; Ergash Raimovning «Bir dona yaproq»; Azim Usmonning «G’aroyib ajdarho»; Kavsar Turdievaning «Toshkesarlar mamlakatida» kabi doston va ertak-dostonlari yaratildi. Hozirgi zamon o’zbek bolalar adabiyotida she‘riyat rivojlangani kabi nasrda ham salmoqli asarlar yuzaga keldi. Yozuvchilarning yangidan yangi avlodlari kamol topdi. Ayniqsa, hikoyachilik o’sdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to’la javob bera oladigan hikoyalar bunyod etildi. Hakim Nazir, Yoqubjon Shukurov, Shukur Sa‘dulla, Xudoyberdi To’xtaboev, Turg’unboy G’oipov, Rahmat Azizxo’jaev, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Murodov, Nodir Nazarov, Ergash Raimov, Safar Barnoev, Abusaid Ko’chimov, Anvar Obidjon va boshqalarning o’nlab hikoyalar to’plamlari bosilib chiqdi. Juda ko’p hikoyalarda kichkintoylarning hayotlari o’z ifodasini topmoqda. Shodmonbek Otaboevning «Itolg’i» hikoyasi qush, qurt-qumursqalarni sevish, ardoqlashga qaratilgan. Itolg’i chumchuq va chug’urchuqlarni tutib olib yeydigan qush. Shukurali aka Itolg’ini jiyani Shavkatga sovg’a qiladi. Shavkat uzum qo’riqlashda undan foydalanmoqchi edi. Ammo qush ularnikida o’zini erkin sezmaydi. Buning sababini surishtirganda Shavkatning otasi bu qush ozod va erkinlikni qumsayotganligini tushuntiradi. Shavkat qushlarni yaxshi ko’radigan, rahmdil bola. U Itolg’ini qafasda uch kun zo’rg’a ushlab turadi. Qafasda qush emas, o’zi o’tirgandek bo’ladi va Itolg’ini qafasdan butunlay chiqarib yuboradi. Qush bolaga «rahmat» degandek parvoz qilib ketadi. Bolalar qissachiligida ham ko’plab yaxshi asarlar yaratildi. Oybek, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhordan tortib bugungi kunga qadar hisoblaydigan bo’lsak, ularning soni nihoyatda o’sdi. Bunga misol qilib Hakim Nazir, Shukur Sa‘dulla, Xudoyberdi To’xtaboev, Hojiakbar Shayxov, Anvar Obidjon, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Habib Po’latov, Muqimjon Niyozov, Rustam Rahmonov, Iboxon, Shukur Xolmirzaev, Oqiljon Husanov, Marva Jaloliddinova, Asad Dilmurod, Abusaid Ko’chimov, Ergash Raimov, Mamatqul Hazratqulov va boshqalarni ko’rsatish mumkin. Bu davr bolalar qissachiligining mavzu

doirasi juda kengaydi. Kattalarning mehnati, ularning jasoratlari («Yonar daryo»), ikkinchi jahon urushida ishtirok etish («Rustamjonning sarguzashtlari»), tobora gullab-yashnab borayotgan go’zal shaharlarimiz va bag’rikeng, insonparvar odamlarimiz («Komandirning boshidan kechirganlari»), o’tmishda zulmkorlarga qarshi kurash, baxtli va yorug’ kun uchun intilish («Kachal polvon»), ikkinchi jahon urushi davrida bolalar hayoti va ularning daladagi faoliyati («Changalzordagi sharpa»), chorvadorlarga ko’mak («Oq otli»), o’quvchilarning dalachilik brigadalari («Zamon»), sho’x va o’zboshimcha bolalar, ularning qayta tarbiyasi («Bizning roman») kabi mavzular bu davr qissachiligida yetakchi o’rinda turadi.

Bolalar tarbiyasida dramaturgiya janrida yaratilgan asarlar ham katta rol o’ynaydi. Hakim Nazir, Adham Rahmat, Po’lat Mo’min, Mamarasul Boboev, Turg’unboy G’oyipov, Narimon Orifjonov, Latif Mahmudov, Farhod Musajonlarning pesalari o’zining bolalarbopligi bilan kichkintoylar quvonchiga quvonch qo’shib kelmoqda. Hozirgi zamon o’zbek bolalar badiiy adabiyoti bilan birga bolalar adabiyotshunosligi va adabiy tanqid ham pog’onama-pog’ona o’sdi, rivojlandi. Bir qator darslik, qo’llanma, majmua, monografiya, kitoblar yozildi. O’nlab nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shu zaylda hozirgi zamon o’zbek bolalar adabiyoti rivojlanishda davom etmoqda. U yangi yozuvchilar, yangi asarlar bilan tobora boyib bormoqda. Bir so’z bilan aytganda, bu adabiyot jonajon O’zbekistonimizning tobora gullab-yashnashi uchun xizmat qilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O’zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo’llanma. 1996 y.
3. Z. Masharipova, T.Matyoqubova. O’zbek yozma adabiyotida folklor an‘analari Toshkent – 2011
4. F.Q.Kiyikbayev. Bolalar adabiyoti. O’quv qo’llanma. Andijon 2020.

# TABIIY FANLARNI O’QITISHDA O’QITUVCHI FAOLIYATINING SAMARASI

**Xoliqova Nilufar Qudratovna**
Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani
72-umumiy õrta ta' lim maktabi
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o’qitishda o’qituvchining samarali faoliyat olib borishi haqida hamda ushbu faoliyatni tashkil etishda pedagoglar faoliyatlarini tashkil etishning usullari haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so’zlar:** faoliyat, tanqidiy fikrlash, ta’lim strategiyasi, psixologik muhit, boshqarish usullari, ta’lim berish, o’rganish.

O‘qituvchi faoliyatining asosiy maqsadi - har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyat holatini yaratish. Shuni ta’kidlash kerakki, muvaffaqiyat holati - bu muvaffaqiyatni ta’minlaydigan shartlarning yig‘indisi, bunday vaziyatning natijasi: yutuq quvonchini boshdan kechirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlari, o‘zlariga va mavjud kuchli tomonlariga ishonish. Sinfda qulay psixologik muhitni yaratish va saqlash o’quvchining muvaffaqiyat holatini tajribasi o‘rganish uchun motivatsiyani oshiradi, o‘quv ishining yuqori ko‘rsatkichlarini rag‘batlantiradi, shaxsiy xususiyatlarni tuzatish istagini ta’minlaydi (tashvish, noaniqlik, o‘z-o‘zini hurmat qilish), ijodkorlikni, tashabbusni rivojlantiradi.

Muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan strategiyani amalga oshirishda o‘z-o‘zini anglash o’quvchi shaxsiyatini ochib berishda va elementlardan foydalanishda ustunlik qiladi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari, muammoli vaziyatlardan foydalanish, amaliy topshiriqlar va laboratoriya ishlari, o’quvchilarni ijodiy faoliyat va muvaffaqiyatga undash shart-sharoitlari ochib beradi.

Ta’lim strategiyalari o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb etishda foydalanishi mumkin bo‘lgan barcha yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu strategiyalar o‘qituvchilarga ko‘rsatmalar beradi, chunki ular aniq ta’lim maqsadlari yo‘lida ishlaydi va o‘quvchilariga muvaffaqiyatga erishish uchun zarur vositalarni beradi. Eng samarali ta’lim strategiyalari barcha o‘quv uslublari va barcha o‘quvchilarning rivojlanish ehtiyojlarini qondiradi. O‘qituvchilar samaradorligini oshirish va o’quvchilarning o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish uchun samarali o‘qitish strategiyalarining to‘liq arsenaliga ega bo‘lishi kerak.

Zamonaviy pedagogika uchun eng innovatsion ta’lim strategiyalari qanday?

Har qanday jarayonni boshqarish usullari:

-reja;

- maqsad;

-metod;

- natija.

Maktab ijtimoiy jihatdan yetuk shaxsni rivojlantirish uchun ochiq maydon manbaidir. Bunda o‘quvchilarni moslashuvchanlik ( kognetiv va ijtimoiy) ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

O‘quvchilar qanday qilib samarali organadilar?

**Ta’lim berish -** bu nafaqat odamni fikrlashga o‘rgatish, balki unga bilish kerak bo‘lgan narsalarni ham o‘rgatishdir.

**O‘rganish,** birinchi navbatda, o‘quvchining ishtirokini talab qiladigan ijtimoiy faoliyatdir.

Samarali pedagogikaning usullari:

– Tashkillashtirish
– Umumiy maqsadlar
– Ijobiy atmosfera
– Samarali xatti-harakatlarni boshqarish
– Hamkorlikda o‘rganish
– Boy va xilma-xil faol o‘rganish
– Havolalarni aniq qilish
– Formativ baholash
– Uchrashuvlar

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki, o’qituvchi faoliyati ta’lim jarayonidagi eng muhim jarayonlardan biri sanaladi. Pedagoglar o’zlarining faoliyat jarayonlarini tashkil etishda zamonaviylikdan hamda davr talabidan kelib chiqqan holda tashkillashlari bugungi kunda zamon talabiga aylanib ulgurdi. Ayniqsa, bugungi ta’lim uchun yangilik sifatida kirib kelayotgan tabiiy fanlarni o’qitishda umuman yangicha yondashuv, hamda yangicha qarashlar bilan faoliaytni tashkil etish maqsadga muvofiq. Pedagogdan yagona talab o’quvchilarga ta’lim berishda xalqaro ta’lim dasturlarini o’rgangan holda ta’lim berishga kirishish hamda o’quvchilarini ushbu fanga qiziqishlarini oshirishdan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar**

1. K. Suyarov va boshqalar. 3- sinf. Tabiiy fanlar. (2022)
2. K. Suyarov va boshqalar. 3- sinf. Tabiiy fanlar o‘ituvchi kitobi. (2022)
3. https://www.conceptdraw.com/How-To-Guide/what-is-a-concept-map

# HAR BIR INSON HURMATGA LOYIQ

**Xolmatova Ro’zixon Olimjonovna**
Toshkent viloyati Zangiota tumani
38 – IDUMI tarbiya fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada hurmat nima? Yurtimizda insonni qadr qimmati haqida yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** hurmat nima, e’tibor, qadr – qimmat.

Nega biz odamni hurmat qilamiz? Hurmat nima - o'zini, kattalarni, oilada, jamoada hurmat qanday? Hurmat nima - har bir insonda bu ijtimoiy -madaniy hodisa haqida o'z tushunchasi bor. Chaqaloqlar ham, ulug'vor yoshdagi odamlar ham hurmatga muhtoj, bu asosiy ehtiyoj odamga o'z oilasida, kasbida, jamiyatida o'z ehtiyojlari va ahamiyatini sezadi.

Huquqlarni, qadr -qimmatni tan olish, boshqa odamning chegaralarini, shaxsiy xususiyatlarini ko'rish va hisobga olish qobiliyati - bu shuni anglatadiki. Hurmatga loyiq harakatlar jamiyatga ta'sir qiladi va har doim rag'batlantiriladi, bu esa ijobiy obro 'hosil qiladi. O'ziga va boshqalarga hurmat oiladan boshlanadi, shuning uchun bu tuyg'uni yoshligidan tarbiyalash juda muhim, shaxsning barkamol rivojlanishi bunga bog'liq.

Qanday qilib hurmatga sazovor bo'lish - bu karerasini, biznesini yoki oilaviy munosabatlarini endi boshlayotganlar uchun tez -tez so'raladigan savol. Hurmat ko'rsatish ko'p qirrali bo'lib, u har kungi nozik harakatlardan va katta ahamiyatga ega bo'lgan harakatlardan iborat. Hurmatli odam bo'lish va boshqalarni hurmat qilish - baxtli bo'lish va boshqasining qadriga etishning ajralmas qismi. Odamlardan qanday hurmat ko'rsatiladi:

- Minnatdorchilik bildirish - bu kuchli kuchga ega va ko'p vaqt talab qilmaydigan oddiy harakat;
- maqtov va hayrat ifodalari;
- o'zingizni boshqasining o'rniga qo'yish qobiliyati;
- bu va'dalarning bajarilishi;
- so'zni to'xtatmasdan oxirigacha tinglash qobiliyati;
- agar mavjud bo'lsa, bu shaxsni kamsitishga emas, balki faqat amaldagi yoki ishdagi aniq xatolarga qaratilgan.

Keksalarga hurmat ota -onaga bo'lgan hurmatni aks ettiradi. Keksalarni chuqur hurmat qilish, hayotdagi qiyin sinovlarni boshidan kechirgani kabi, o'tmishdagi odamlar tartibida bo'lgan. Keksalarga ehtirom qanday namoyon bo'ladi:

- muloyim munosabat;
- xushmuomala xatti -harakatlar;
- ehtiyotkorlik va e'tiborning namoyon bo'lishi (yo'l bo'ylab o'tish, og'ir sumkani ko'tarish, transportda joy olish);
- muhtojlarga yordam berish.

O'zaro munosabatlarda hurmat nima? Insonga hurmat nima? Bu savolga har kim o'z javobini ko'radi, lekin umuman olganda, bu o'ziga xoslik va ko'p qirrali shaxslik, Xudo yoki tabiat xilma -xillikni sevishini tushunishdir, shuning uchun odamlar har xil. Do'stlik, sheriklik, oila munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari bor, lekin ulardagi hurmat umumiy tamoyillar asosida qurilgan:

- shaxsiy chegaralarni hurmat qilish, makon va bostirib kirmaslik;
- do'stingiz, sherigingiz, turmush o'rtog'ingizning fikri siznikidan farq qilishi mumkin, buni qabul qilish va moslashuvchanlik bilan davolash muhim;
- boshqa avtonom odamda ko'rish;
- qiyin paytlarda, vaziyatlarda yordam va yordam ko'rsatish.

Tabiatga hurmat nima? Tabiatga hurmat barcha tirik mavjudotlarga rahm -shafqat va atrofimizdagi dunyoga g'amxo'rlik bilan chambarchas bog'liq. Sayyoradagi vaziyat shundayki, odamlar ko'p hollarda resurslarni isrof qiladilar: neft quyish - bu erning qoni, buning natijasida bo'shliqlar paydo bo'ladi, tabiatga axlat tashlanadi, hayvonlar katta hajmda o'ldiriladi - bularning barchasi hurmatsizlik va hurmatsizlik. "Bizdan keyin, hatto toshqin!" - shunday dedi frantsuz qiroli Lui XV, bugungi kunda insoniyat bunday munosabat oqibatlariga duch kelmoqda.

Bola birinchi marta maktabda kasblar olamiga duch keladi va o'qituvchiga hurmat asosiy, aniqlovchi bo'lib qoladi. Zamonaviy maktablarda o'qituvchilarga ko'pincha ularning mehnatini beparvolik va qadrsizlantirish bilan munosabatda bo'lishadi. Ota -onalar va o'qituvchilarning vazifasi - har qanday kasb uchun qadriyatlarni shakllantirish, kichkina bola buni misol bilan ko'rsatishi va tushuntirishi juda muhim, agar farrosh qorni tozalamasa, odamlar qor bo'ronlarida qolib ketar edi. o'qituvchilar, odam savodsiz bo'lardi, yoza olmasdi va o'qiy olmas edi, ko'plab buyuk kashfiyotlar qilinmasdi, buyuk kitoblar yozilmas edi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J.Rahimov “Ma’naviyat asoslari” o’quv qo’llanma
2. M.Hamdamova Ma’naviyat asoslari metodik qo’llanma

# MUAMMOLI TA’LIMNING O’ZIGA XOS JIHATLARI

**Xujaniyazova Nargiza Satimovna**
Urganch shahar 24-IDUM o’qituvchisi
Telefon: +998 (90) 090 79 50
xujaniyazova.nargiza_24@inbox.uz

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola muammoli ta’limning o’ziga xos jihatlari hamda kreativlikni rivojlantirish haqida.
***Kalit so’zlar:*** Muammoli ta’lim, reproduktiv, ilmiy-izlanishli metodlari, kreativ ta’lim, sgeato, kreativ pedagogika.

Muammoli ta’lim sohasida qalam tebratgan M.I.Mahmudov, M.N.Skatkin, A.M.Matyugikven, I.Ya.Larner kabi olimlarning xulosalariga ko`ra quyidagi metodlarni keltirish mumkin:

Tushuntirish, namoyish etish, Reproduktiv, Muammoli bayon qilish, Ilmiy-izlanishli metodlari mavjud.

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muammoli o`qitish metodlari juda zarur va kerak.

Chunki muammoli ta’lim o`quvchini izlanishga, ijodkorlikka, erkin fikrlashga o`rgatadi. O`quvchida bunday sifatlarning shakllanishi, o`quv-|biluv mas’uliyatini oshiradi, mustaqil bilim olish uning kundalik odatiy holatiga aylanadi. Bu esa ta’lim mazmunini, yangi dastur va standartlarni o`zlashtirib olishga kafolat. Bo`ladi.

Kreativ ta’lim o`quvchining ijodiy qobiliyatini takomillashtirishga yo`naltirilgan bo`ladi. Ayniqsa muammoli, loyihalashtirilgan va jadallashtirilgan ta’limlarning qo`llanishi o`quvchida yaratuvchanlik, bunyodkorlik qobiliyatlarini o`sishiga olib keladi.

An’anaviy shaklda olib boriladigan ta’lim o`quvchiga ilgaritdan ma’lum axborot, bilim, tushuncha, ko`nikma va malakalarni berish bilan chegaralanadi.

Lekin kreativ oriyentatsiyadagi darslar jarayonida qabul qiluvchi ob’ektdan ijodkor (kreativ) sub’ektga aylanadi. Predmetni (tomoni, mazmuni) o`zlashtiruvchi o`ziga nisbatan yaratuvchanlik bilan yondoshish asosida o`zlashtirib oladi. Har bir faktik materialga ijodiy va tanqidiy karay oladi. Olinayotgan o`quv materiali unga yangicha qarash, qo`shimcha materiallarni olish, o`zlashtirishga yo`l ochadi. Ko`pincha bunday hollar o`zlashtirishga evristik yondashuvni shakllantiradi.

Bu esa mutaxassislarni kelajakda olgan bilim, ko`nikmasining faqat ijrochisigina bo`lib qolmay, balki o`z kasbiy faoliyatiga ijodkorlik, yaratuvchanlik asosida qarashga olib keladi.

Hozirgi kun ta’lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Sir emaski, mamlakat taraqqiyotida texnologiya, xom ashyo, jihozlar, energo resurslar, ekologik o`zgarishlar borgan sari globallashib, uning boshqaruvchisidan yuksak mahorat egasi bo`lishni talab etmokda. Umuman ta’lim tizimida ham uning dasturlari, mazmuni, standartlari takomillashib bormoqda. Bunday tezkor o`zgarishlar bilim olishning yangi texnologiyalari, masofaviy, loyihalangan ta’lim, media ta’limini, ya’ni shaxsiy ijodkorlikka asoslangan ta’limni joriy qilish ehtiyojini keltirib chiqarmokda.

Kreativ ta’limning maqsad va vazifalari hozirgi mavjud ta’lim asosan ilgaridan mavjud bo`lgan an’anaviy didaktikaga asoslangan, ya’ni o`quv jarayonida ilgaridan fanga ma’lum bo`lgan bilimlarni o`qitish, o`rgatish etkazish bilan xarakterlanadi. O`qituvchi ilgaridan ma’lum reproduktiv faoliyatni olib boradi. Bu esa asosan o`quvchining ta’lim mazmunini yodlab olishi, qayta takrorlab berishi bilan cheklanadi. Ya’ni, ta’lim ilgaridan ma’lum predmet "avval hunar o`rgat, keyin shogird o`z xohishicha nimani ijod kilsa -qilaversin" yo`sinida ish tutish rasm bo`lgan.

Bunday holda bilim olish konsepsiyasi to`rt bosqichda amalga oshiriladi:

- Bilim bilan tanishish, ma’lum axborotni tushunib olish, voqealarni bir-biridan ajrata olish;
- Bilimdan nusxa olish, olgan bilimlarini takrorlash;
- Bilim - malaka, olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo`llay olish;
- Bilim-transformatsiya, olgan bilimlarini, keyingi yangi bilimlarni, yangi vazifalarni bajarishda qullash (ya’ni ijodiy foydalana olish darajasi)dir.

Agar umumta’lim maktablari birinchi, ikkinchi darajadagi bilimlarni o`rgatsa, oliy ta’lim uchinchi, oliy ta’limdan keyingi ta’lim to`rtinchi darajadagi, ya’ni ilmiy izlanish, aspirantura,

doktoranturalarda bilim berishni davom ettiriladi. Undan keyingi ta’lim "beshikdan qabrgacha"., "umr bo`yi uzluksiz" ta’lim davom ettiriladi.

Shuni yodda saqlash kerakki, ijodkor yaratuvchi shaxsni tarbiyalash -fanga ma’lum bo`lgan bilimlarning o`zinigina o`zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zamirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**

1. Abdullayeva Sh. Ta`limda o`qituvchi shaxsi va o`quvchi faoliyatini uyg`unlashtirish texnologiyalari. // Molodoy uchyonыy, 2016 yil. 9-son.

2. Azizxo`jayeva N. O`qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. T.: TDPU, 2000.

# TABIIY FANLARNI O'QITISHDA O'QUV LOYIHALARIDAN FOYDALANISH

**Yakubova Munira Bobonazarovna**
Qashqadaryo viloyati G'uzor tumani
26-umumiy o’rta ta’lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bilim odamlar miyasida oz-ozidan paydo bolmasdan, balki muayyan ish faoliyatida shakllanadi. Amaliyot insonni tabiat bilan munosabatida asosiy omil bolib, bu oz navbatida, odamlarning o’zaro munosabnatlari tizimida, ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim rol oynaydi. Amaliyotning asosiy turlari moddiy ishlab chiqarish va ilmiy tajriba hisoblanadi.

**Kalit so’zlar:** amaliyot, loyiha, tajriba, tabbiy fanlar, amaliy uslub.

Tabiiy fanlardagi amaliyot ilmiy ishlab chiqarishning asosiy omili bolib kelmoqda. Amaliyot nazariyani paydo bo’lishiga, ilmiy shakllanishiga va rivojlanishiga olib keladi. Bilishning aniqligi muayyan obekt haqidagi ma’lumotning haqiqat ekanligi bilan tasdiqlanadi. Ayni paytda, sharoit boshqacha bo’lsa, haqiqat ham boshqacha bolishi mumkin. Masalan, oddiy sharoit va bosimda suv 100 C da qaynaydi. Lekin bosim o’zgarsa yoki og’ir suv bolsa, u aniq -konkret hisoblanadi. Ma’lum tizimdagi haqiqat boshqa sharoitda butunlay o’zgarishi mumkin. G’oyaning amaliyotda tasdiqlanishi haqiqatning asosiy omili hisoblanadi. Amaliy ishlarga o’rgatish boshlang’ich sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiqdir. Amaliy uslublar o’qituvchi tomonidan tashkil qilinadigan va yo’naltiriladigan, o’quvchilar fikrini rivojlantirishga mo’ljallagan so’z, ko’rgazmalilik va amaliy ishning o’zaro murakkab bog’lanishida bo’lishini ko’rsatadi. Amaliy uslublar qo’llanilishi o’quvchilar retseptorlari va effektorlarining jadal faoliyati bilan bog’liq. Amaliy uslublar o’rganilgan materialni chuqur tushunib yetishga, ko’nikma va malakalar hosil qilishga imkoniyat yaratadi. Amaliy uslublarni qo’llashga o’quvchilar faoliyatining o’zi, bilim manbai hisoblanadi. Bunday usullar sirasiga og’zaki, yozma mashqlar, laboratoriya ishlari, maktab yer maydoni, tirik tabiat burchagida, sinfdan tashqari bajariladigan mashg’ulotlar kiradi.

Amaliy uslublarning turlariga:

1. Oquvchilarning tarqatma didaktik material bilan turli narsalar yasashi.
2. Rasm chizishi.
3. Tabiat obyektlarini tanib olish va aniqlash bo’yicha ishlari.
4. Hodisalarni kuzatish va qayd qilishlari.
5. Tajriba o’tkazishlari (tajriba vositasida masalalarni hal qilish) kiradi.

Amaliy ish boshlanishi oldidan qo’yilgan savol, muammo, masalaga o’quvchilar uning natijalari bilan javob berishlari kerak

O’quvchilarni amaliy bilimlarini sinash maqsadida 4-sinflarda quyidagi muammoli savollarni o’rtaga tashlash mumkin. Yozning jazirama issig’ida cho’lda turibsiz. Amaliy kuzatish bilimlaringizga tayanib, turgan joyingizdan orientir olib, janub tomonni belgilang. Amaliy tabiatni kuzatish natijasida quyidagi faktorlar asosida janubni aniqlash mumkin:

1) sudralib yuruvchi hayvonlar o’z inini kirish yo’lini doim janubga qaratadi;
2) qushlar o’z uyasini doimo janub tomonga qo’yadi;
3) osimliklar shoxlari doimo janub tomonga egilgan;
4) osimlik poyasining janub tomoni doimo yog’onlashgan boladi;
5) barxan qumlar bir uchi shimolda ikkini uchi esa janubga yotgan boladi.

O’quvchilarga har xil narsalarni berib rasm, fotosurat va gugurt qutisi, kubik, stakan boshqa narsalarni olib chiqib, o’xshashlik farqlarini topishni topshiradi, so’ng geometrik figuralarni tarqatadi, uni o’quvchilar daftar varag’iga ustiga qo’yib atrofini qalam bilan qog’ozga chizadilar. Topshiriq bajarilgandan keyin narsaning yuqoridan ko’rinishini plan deyiladi degan xulosaga olib keladi. Undan keyin stolning plani chizdiriladi. Agar o’quvchilar narsalarning kattaliliga qiynalsalar tasvirlanadigan narsani shartli ravishda kichraytirish mumkinligini tushuntiradi. (Masalan 10, 20 marta) Dasturlashtirilgan o’qitish uchun quyidagilar kerak:

-o’quv materialining puxta tahlili, uning qat’iy tanlanish va mantiqiy ketma-ketlik bo’yicha bo’linishi;

-o’quvchilarning bilim olish faoliyatini tekshirishdagi rahbarlik

Boshlangich sinfdan boshlab o’z o’lkalarini, o’z joylarini o’rganadilar, tabiat ustida kuzatish-

lar olib boradilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Boshlangich maktabda o'qish vaqtida ularda boy aniq material to'planadi va bu material o'lkashunoslik burchagida joylashtiriladi. Vaqt o'tishi bilan o'lkashunoslik burchagida boshlangich maktabni ilgarigi bitiruvchilari chiqqan eng qimmatli materiallar to'planib boradi, undan tabiiy fanlarni o'qitishda sistemali ravishda foydalaniladi. O'lkashunoslik burchagi tabiatshunoslik xonasida yoki alohida sinfda barpo etiladi. Material uch bo' limga ajratiladi: bizning o' lka, ob-havo va tabiat belgilari.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. D. Sharipova, D.P. Xodiyeva, M. K. Shirinov Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi Toshkent, "Barkamol fayz media" nashriyoti, 2018-yil.
2. M.Nuriddinova. "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi" Toshkent, O'qituvchi 2005- yil

# ЛЕКСИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ СЛОВОУПОТРЕБЛЕНИЯ

**Гаппарова Севара Камилжановна**
Учитель Ургенчской городской
средней школы No 28.
Телефон: +998 (93) 692 76 86
gapparovasevara_28@mail.ru

***Аннотация.*** В данной статье рассматривается важность знания лексического значения и нюансы в употреблении слов. Особое внимание уделяется методике и методам формирования компетентного словоупотребления.

***Ключевые слова:*** лексическое значение, единица языка, грамматические и синтаксические функции.

Слово представляет собой важнейшую единицу языка. При помощи слов называются все многообразные явления окружающего нас мира. Выполнять эту роль слово может потому, что оно имеет определенный смысл, значение, которое называется лексическим значением.

В лексическом значении слова получают отражение сложившиеся у людей представления о существенных сторонах предметов, действий, признаков (1, с.7). Большинство слов называют предметы, их признаки, количество, действия, процессы и выступают как полнозначные, самостоятельные слова, выполняя в языке номинативную функцию. Обладая едиными грамматическими и синтаксическими функциями, слова объединяются в разряды, части речи.

По нашему мнению, в учебном процессе прежде всего по каждой теме нужно указывать задачи и планируемые результаты ее изучения. Это поможет учителю сделать работу над темой более целенаправленной, уделяя на каждом уроке большое внимание именно тем вопросам, которые являются в ней главными.

Приступая к изучению той или иной темы, важно особенно внимательно отнестись к поставленным конкретным задачам работы над новым материалом, заранее уяснить себе, какие вопросы из ранее пройденного материала должны быть рассмотрены в связи с изучением нового, что должно получить дальнейшее развитие при изучении данной темы. Учитель должен сам осуществить подбор упражнений для устных вычислений. Важно продумать организацию каждого упражнения, чтобы была обеспечена дифференциация и индивидуализация заданий с учетом особенностей восприятия, памяти, мышления каждого ученика, уровня овладения им соответствующими знаниями, умениями и навыками.

Так, слово лиловый имеет лексическое значение «светло – фиолетовый», «цвета сирени или фиалки»; в этом значении отразились наши представления существенных признаках такого признака. Точность словоупотребления и состоит в соблюдении лексических норм русского литературного языка, в умении пользоваться словами в письменной и устной речи в полном соответствии с их сложившимися и закрепившимися в языке лексическими значениями. При выборе слова необходимо учитывать и его возможную, сложившуюся в языке сочетаемость с другими словами. Слова входят в словосочетания и предложения, из кото-рых образуется речь. Звуки, морфемы, слова, словосочетания, предложения изучаются в разделах науки о языке (3, с.5). Итак, можно резюмировать следующие моменты:

1. чтобы употреблять слова точно, надо хорошо знать их лексическое значение и при сомнении обращаться к справочникам, прежде всего к толковым словарям русского языка. Богатая и разнообразная лексика русского языка собрана в словарях.

2. чем правильнее и точнее речь, тем она доступнее для понимания; чем красивее и выразительнее, тем сильнее она воздействует на слушателя.

3. Необходимо развивать чувство прекрасного, формировать высокие эстетические вкусы, умение понимать и ценить произведений, обратить внимание на лексические значения слов.

4. Надо помочь ученику глубже осознавать свои мысли и чувства, яснее мыслить и глубже чувствовать; надо помочь ученику это познание самого себя сделать средством познания других, средством более тесного сближения с коллективом, средством через коллектив расти вместе с другими и идти сообща к совершенно новой, полной глубоких и значительных

переживаний жизни.

**Литература:**

1. В.Ф.Греков, С.Е.Крючков, Л.А.чешко. Пособие для занятий по русскому языку. – М, 1990.

2. М.Т. Баранов, Т.А. Ладыженская, М.Р. Львов. Методика преподавания русского языка, - М., 1990.

# ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА УМУМКАСБИЙ ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА МОБИЛ ТАЪЛИМНИНГ ЎРНИ

**Қурбонов Ғуломжон Ғафурович**
Бухоро давлат университети таянч докторанти
+998(94)1202105
gulomjonqurbonov8@gmail.com

**Аннотация.** Мазкур ишда олий таълим муассасалари талабаларини умумкасбий фанлардан тайёрланган мобил дастур асосида ўқитишнинг электрон-дастурий ва методик таъминоти ҳақида сўз боради.

**Таянч иборалар:** рақамли таълим, мобил таълим, концепция, синхрон, мультимедиа.

Таълимнинг инновацион электрон-дидактик шакллари - таълим олувчиларнинг қобилиятлари ва қизиқишлари ҳисобга олинади. Таълим-тарбия мазмунини, таълим мақсадига мос равишда лойиҳалаш ҳамда педагогик, рақамли технологик методлар, шакллар ва ўқитиш усулларини татбиқ этишга йўналтирилган умумпедагогик, дидактик ва шахсий услубий тартиблар асосида амалга оширилувчи таълим берувчи ва таълим олувчи ўртасидаги ўзаро таъсир тизимидир [1].

Ҳозирги кунда ривожланиб бораётган мобил таълим ҳақида Буюк Британиялик олим S.Trongtortam ўз илмий ишларида мобил таълимнинг умумлаштирилган таърифини келтирган. Мобил таълимда талабалар учун услубларни такомиллаштирган ҳолда ривожлантиришда ёрдам берадиган мобил телефонлар, смартфонлар, планшет компьютерлар ва кўчма қурилмалар ёрдамида ўрганишнинг янгича методлари келтириб ўтилган. Мобил таълим технологиялари ўқитувчилар ва талабалар учун жозибадор бўлиши мумкин бўлган таълим жараёнини ва ўқитишни осонлаштириш, қўллаб-қувватлаш ва такомиллаштириш мақсадида ишлатилиши назарда тутилади [2].

Мобил таълим талабаларга тизимдаги муаммоларни ҳал қилиш йўлида эришиш мумкин бўлган, фойдали, долзарб ва рағбатлантирувчи масалаларда индивидуал равишда фаол иштирок этишга ёрдам беради. Мобил таълимга мослашиш учун таълимнинг барча босқичларида фаолият олиб бораётган ўқитувчилар ўқув жараёнида мобил таълимдан фойдаланиши учун замонавий технологияларнинг дастурий воситаларини ўзлаштиришлари талаб этилади. Бироқ, яхши ижтимоий-иқтисодий муҳитга эга бўлган жамиятларда ҳам бу жараёнда баъзи бир муаммолар мавжудлиги бизга маълум. Улар ўқув-методик таъминотнинг ва ўқитувчилар учун тегишли қўлланмаларнинг ҳамда мобил таълимдан фойдаланиш компетентлигининг етишмаслиги каби масалаларини ўз ичига олади [3].

Юқорида келтирилган тамойилларга таянган ҳолда рақамли таълим ўқув материали тартибини тайёрлашда аудио, видео, мантли маълумотлардан фаннинг меъёрий ҳужжатлар даражасидан чиқмаган ҳолда тайёрланади. Талабаларнинг визуал ахборот қабул қилиш имкониятидан келиб чиқиб, мавзу доирасида содда, тушунарли ва аниқ маълумотлар келтирилади. Бунда таълим ресурслари ўртасидаги ўзаро боғланишни фан мавзуларининг узлуксизлиги инобатга олиниши лозим бўлади. Бугунги кунда рақамли таълим технологиялари шиддат билан ривожланиб бораётганлиги сабабли юқоридаги тамойиллар ўз-ўзидан янгиланиб бориши билан бир қаторда бу ўзгаришларни тадқиқ этишга ҳаракат қиламиз.

Юқорида таъкидлаб ўтилган хориж олимларининг тамойиллардан келиб чиқиб, мобил таълимни қуйидаги тамойилларга амал қилишини кўрсатишимиз лозим:

- ахборотни тақдим этишнинг турли хилдаги методлардан фойдаланиш мумкинлиги, мураккаб жараён ва ҳодисаларни реал ҳаётда тасаввур қилиб бўлмайдиган даражада акс эттиришга ёрдам бериши кўрсатилади;
- битта концепция элементи билан боғланган форматда имкон қадар битта интерфейс-да жойлашган бўлиши зарур. Бу фойдаланувчига объект (жараён, ҳодиса)ни турли томон-лардан ва ҳар хил намоён бўлиш методларини ўрганишга имконият яратади;
- овозли, графика ва матнли каби ахборотлар тартибланган синхрон кўри- нишда фой-даланилиши керак бўлади. Бу фойдаланувчи идрокининг ҳаддан ташқари юклама билан ишламасликка имкон яратади, шунингдек, объект (жараён, ҳодиса)ни кўп қиррали тарзда

идрок қилишга ҳисса қўшилади;

- мобил таълим материалининг шакли таълим мазмунига ва ўқув дастурининг мақсади билан боғлиқ бўлган ҳолда мос келиши зарур;
- мобил таълим материали учун бир вақтнинг ўзида матнли, визуал ва аудио тақдимот шаклларидан фойдаланишга педагогик-психологик ёндашувни инобатга олиш зарур;
- мураккаб тушунчалар ва жараён ягона восита орқали, сўнгра икки ёки бир нечта ахборотни тақдим этувчи оммавий ахборот воситалари орқали тақдим этилади;
- талабаларнинг билим ва когнитив хусусиятларини ҳисобга олишга тўғри келади;
- талабалар метакогнитив қобилиятларнинг юқори даражаси билан гиперматн орқали боғланишларни ва ҳар қандай маълумотларни осонлик билан топишлари учун қулайликлар яратилган бўлиши лозим.

Ушбу мобил таълимнинг тамойилларидан педагогик тажрибалар шуни кўрсатадики, олий таълим муассасаларида “Ахборот тизимларининг математик ва дастурий тизимлари” таълим йўналиши умумкасбий фанларини ўқитишда рақамли технологияларни қўллаш таълим самарадорлигини янада оширишда сезиларли аҳамият касб этади. Бунда мобил дастурий таълим воситалари алоҳида муҳим ўрин эгаллайди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Иноятов У.И, Замонавий узлуксиз таълим муаммолари: инновация ва истиқболлар. Халқаро илмий конференция. 2018 й. -5 б.

2. Trongtortam, Suparawadee. A decision support model for mobile technology enhanced teaching. Diss. Liverpool John Moores University, 2019.104.

3. Irby T.L. Instructor Competencies Needed to Develop Instructional Strategies for Mobile Learning in Fields of Agricultural Education: Diss. – 2014.

# TASVIRIY SAN’ATNING JISMONIY TARBIYA BILAN UYG’UNLIGI

**Zulpanov Akbar Maxmudovich**
(tasviriy san’at),
**Pardaboyeva Gulnoz Baxtiyor qizi**
(jismoniy tarbiya)
Sardoba tumanidagi 14-sonli umumiy o’rta
ta’lim maktabi o’qituvchilari

**Annotatsiya:** maqolada tasviriy san’atning jismoniy tarbiya bilan uzviy bog’liqligi, aloqasi, tarixi hamda tarixiy shaxslarning qarashlari to’g’risida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, fanlararo aloqa, tarix, milliy istiqlol g’oyasi.

Yurtimizda fan, texnika, madaniyat va ma’naviyat shiddatli rivojlanish davriga kirib bormoqda, bu yosh avlodni tarbiyalaydigan tarbiya va ta’lim muassasalari va xalq maorifi xodimlari oldiga ulkan vazifalar qo’ymoqda. Bu vazifalar, maktab va oliygohlar faoliyatini takomillashtirish, mamlakatimiz yosh avlodlariga zamon talabi darajasida bilim va malakalar berish jarayonida amalga oshiriladi. Maktab va oliygohlar faoliyatini takomillashtirish va unda beriladigan bilim va malakalar samaradorligini oshirishning asosiy vositasi va shartli o’quv fanlarini o’rganishda Tasviriy san’atni fanlar bilan bog’lab o’rganishimiz mumkin [1:147]. Fransuz faylasufi Didro, bundan qariyb 300 yillar avval, - “Qaysi bir mamlakatda rasm chizishni o’qish-yozish kabi bilsalar, bu mamlakat barcha sohalarda har qanday mamlakatni quvib yetadi va ortda qoldiradi” deb takidlagan [2:12]. Jahon realistik tasviriy san’ati – jahon xalqlarining o’tmishi, hozirgi kuni va kelajakdagi hayotini ifoda etuvchi, shuningdek, tabiat va jamiyatni tasvirlovchi haqiqiy ko’zgudir. Biz unda o’tmishni, bugunni va kelajakni ko’ramiz. Shu boisdan ham realistik tasviriy san’at ustalari o’tmish tarixni ham, materiya va taraqqiyotni ham matematika, tabiat, geografiya, biologiya va jismoniy tarbiyani ham yaxshi bilishlari lozim [3:7]. Ta’lim sifati va darajasini ko’tarmasdan ishlab chiqarishga fan va tehnika yutuqlarini joriy qilish, uning samaradorligini oshirish mumkin emas. Bu o’z navbatida fanlararo bog’liqlikni mustahkamlashni talab qiladi. O’qituvchi dars jarayonida fanlarning bir-biriga bog’liq ekanligini o’quvchilarga tushuntirishi zarur. Tasviriy san’at va uning fanlar bilan bog’liqligini jismoniy tarbiya fanidan boshlaymiz, jismoniy tarbiya axloqiy mukammallashish bilan bog’liq bo’ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o’z hulqiga munosabatlarni quyidagilarda o’z aksini topgan:

a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;

b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;

v) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo’lgan shaxsni shakllantirish;

g) shaxsning o’ziga, o’z hulqiga, axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Tarbiya deganda, ma’lum maqsadni muljallab insonga ta’sir etmoqlik va uning qobiliyatlarini maqsadga muvofiq rivojlantirishga yo’naltirilgan, ijtimoiy - siyosiy va axloqiy – estetik ideallarda, tarbiyalangandagidek yuksak orzularga erishish jarayoni tushuniladi. Tarbiya bu kishilarning (insonning) madaniy faoliyati sohasi, ana usha madaniyatni o’zlashtirish, uning yutuqlarini takomilashtirish va avloddan-avlodga uzatish usulidir. Jismoniy tarbiya inson jismoniy kamolotiing pedagogik tizimi deb ham qaraladi [4:21]. Xulosa qilganda, jismoniy estetik tarbiyani, xususan, jismoniy sifatlarni rivojlantirishni mohiyatining yuqoriligi va salmoqliligi ko’zga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, jismoniy estetik sifatlarni rivojlantirishda ularning barchasini uzaro uzviy bog’lab olib borishni tarbiya jarayoni taqazo qiladi. Fanlarning bir butunligini, ular bir-birlarini to’ldirib turishi to’g’risida bilimlar berib borilsin. Ana o’shanda biz o’qituvchilar kelajagimizning porloq davomchilarini haqiqiy milliy iftixorimiz e’zozlaydigan insonparvar yigit qizlarni voyaga etkazgan bo’lamiz. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g’oya yoki mafkura aslo o’z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli

porloq, kelajagi buyukdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR*:***


1. B.Oripov. Tasviriy faoliyat metodikasi. T.: Ilm-ziyo. 2017 y.
2. N.Rostovsev. Maktabda tasviriy san’atni o’qitish metodikasi. M.: 1980 y.
3. “Universitet ovozi” gazetasi. G.: 9-son. 2019 y.
4. A.Kurbasheva. Jismoniy tarbiya jarayonida ta’lim va tarbiyaning rivojlanish asoslari. “Zamonvaiy ta’lim” jurnali. 2014 yil, 6-soni.

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000